

ONAXON JABBOROVA, QUMRINISO USMANOVA

373
7-14

BOSHLANG'ICH TA'LIM MENEJMENTI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Onaxon Jabborova, Qumriniso Usmanova

**BOSHLANG'ICH TA'LIM
MENEJMENTI**

*60110500 – Boshlang'ich ta'limi yo'nalishi
talabalari uchun darslik*

«SARBON LLS»
Toshkent – 2024

UO‘K:

KBK:

Jabborova O. M., Usmanova Q.S. Boshlang‘ich ta’lim menejmenti. Darslik. – T., 2023. – 108 b.

Mazkur Darslik “Boshlang‘ich ta’lim menejmenti” o‘quv fani dasturi asosida ishlab chiqilgan Ishchi o‘quv dasturiga binoan tuzilgan bo‘lib, unda boshlang‘ich ta’lim menejmenti asoslari, mexanizmlari va amaliy samaradorligi masalalari tahlil qilib berilgan. O‘quv faniga mos ravishda ushbu darslik ilk bor tuzildi. Unda o‘qitishning kredit-modul tizimi talablari hisobga olingan bo‘lib, asosiy e’tibor bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining boshqaruvi madaniyati ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Darslik talabalar, o‘qituvchilar, mustaqil tadqiqotchilar va muammo bilan qiziqqanlarga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

Shukurullo Mardonov – pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Tilakova Mayjuda Ashurovna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuchkinov Abdumalik Yuldashevich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Darslik O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 7 maydagi 149-sonli buyrug’i asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN

MUNDARIJA

KIRISH	4
1-MODUL. BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI TASHKIL QILISH ASOSLARI.....	5
1-mavzu: “Boshlang‘ich ta’lim menejmenti” tushunchasi mazmuni	5
2-mavzu. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi me’yoriy asoslari	11
3-mavzu: Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish tayanchlari	18
4-mavzu. Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishning zamonaviy texnologiyalari	25
5-mavzu. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini o‘rganish zaruriyati.	31
2-MODUL. BOSHLANG‘ICH TA’LIM BOSHQARUVI MEXANIZMLARI	37
6-mavzu. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi omillari.....	37
7-mavzu. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining xorijiy an’analari	43
8-mavzu. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining innovasion texnologiyalari	50
9-mavzu. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining istiqbolli yo‘nalishlari	58
10-mavzu. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining amaliy ahamiyati.....	66
3-MODUL. BOSHLANG‘ICH TA’LIM BOSHQARUVI SAMARADORLIGI	73
11-mavzu. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini aniqlash indikatorlari	73
12-mavzu. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi monitoringi.....	80
13-mavzu. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi tadqiqotchiligi	87
14-mavzu. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi strategiyasi	94
15-mavzu. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholash tizimi.....	100
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	106

KIRISH

“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan boshlang‘ich ta’limda sifat ko‘rsatkichini oshirish vazifasi mazkur ta’lim bosqichida o‘ziga xos boshqaruv jarayoninin amalga oshirishni ham taqozo etadi. Chunki boshqaruv – bu boshlang‘ich ta’limni yuksak darajada tashkil etish, o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish va ushbu ta’lim bosqichini istiqbolldi rivojlantirib borish asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Shu sababli xorijiy mamlakatlar boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘ziga xos boshqaruvni amalga oshirish tajribalari tarkib topgan. Bunday tajribalar Menejment asoslarining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim, umumiy o‘rtta ta’lim boshqaruvi tarkibida tashkil etilib, boshqarib kelinmoqda. Shu sababli ushbu ta’lim bosqichini rivojlantirish asoslaridan biri sifatida boshlang‘ich ta’lim menejmentining nazariy, metodologik va amaliy asoslarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Mazkur masalaning ijrosini ta’minalash maqsadida 2021 yili ilk bor Chirchiq davlat pedagogika universitetida “Boshlang‘ich ta’lim menejmenti” tanlov fani dasturi ishlab chiqildi. Ushba darslik ana shu dastur asosida tuzilgan bo‘lib, boshlang‘ich ta’lim menejmentining eng dolzarb masalalarini qamrab olgan.

Darslikda boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish asoslari, uni boshqarishning mexanizmlari va boshqaruv samaradorligini masalalarni yoritishga asosiy e’tibor qaratildi. Bunda pedagogik manbalar, ilmiy tadqiqotlar va mamlakatimizda amalga oshirilgan menejment asoslari bo‘yicha ilmiy ishlanmalarning hulosalariga tayanildi. Shuningdek, darslikda boshlang‘ich ta’lim menejmenti bo‘yicha xorijilik pedagog olimlarning tajribalari ham hisobga olindi.

Darslik o‘qitishning kredit-modulli tizimi talablari asosida tuzildi va unda mazkur masala bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga bilim hamda ko‘nikmalar berishga asosiy e’tibor qaratildi.

Darslikga doir fikr-mulohazalarining kutib qolamiz.

1-MODUL. BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI TASHKIL QILISH ASOSLARI

1-mavzu: “Boshlang‘ich ta’lim menejmenti” tushunchasi mazmuni

Reja:

1. Pedagogik menejment asoslari
2. “Boshlang‘ich ta’lim menejmenti” fani mazmuni
3. Boshlang‘ich ta’lim menejmentini o‘rganish zaruriyati

Tayanch tushunchalar: *Ta’lim, boshlang‘ich, boshqaruv, menejment, tashkil etish, yondashuv, tushuncha, bilim, ko‘nikma, malaka.*

Pedagogik menejment asoslari. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da ta’lim tizimini innovausion yondashuvlar asosida yondashish va boshqaruv samaradorligiga erishish vazifalari qo‘yilgan. Shu sababli ta’lim jarayonini boshqarish ishini amalga oshiradigan *pedagogik menejment* asoslarini idrok etish taqozo etiladi. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabriddagi PF-269-son “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida pedagogik menejment asoslarini ham yangilash va takomillashtirish masalalari belgilangan. Bunda pedagogik menejment asoslariga yangicha munosabatni tarkib toptirish muhim hisoblanadi.

Pedagogik menejment asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- a) ta’lim va tarbiya jarayonini me’yoriy hujjatlarga asosan tashkil etish;
- b) ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligiga erishish asoslarini yaratish;
- v) ta’lim va tarbiya jarayonini innovasion yondashuvlar aossida boshqarish;
- g) pedagogik menejment mutaxassislarini tayyorlash.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta’lim jarayonida “Menejment” o‘quv fani tarkibida bo‘lajak o‘qituvchilarga pedagogik menejment asoslari o‘qtilmoqda. Buning natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim va tarbiya jarayonini boshqarish bo‘yicha bilim va ko‘nikmasi

tarkib topmoqda.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, pedagogik menejment asoslarida boshqaruv jarayonida pedagogik qonuniyatlarga asoslanish ustuvor hisoblanadi. Bunday pedagogik qonuniyatlarning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

a) ta'lim oluvchini va ta'lim beruvchilarining huquqlarini ta'minlash;

b) ta'lim va tarbiya jarayonida insonparvarlik va demokratiya tamoyillariga amal qilish;

v) ta'lim va tarbiya oluvchilarining extiyojlarini ro'yobga chiqarish, ta'lim beruvchilarining sharoitlarini maqbullashtirib borish;

g) ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini baholash.

Mazkur pedagogik qonuniyatlar pedagogik menejmentning eng muhim asoslarini tashkil etadi. Chunki pedagogik qonuniyatlarga asoslanish boshqaruvda qonuniylikning ustuvor bo'lishi va byurokratik boshqaruv uslubining inkor etilishi imkuoniyatlarini beradi. Shu sababli pedagogik menejment asoslarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

Pedagogik menejment asoslarida eng avvalo ta'limga oid qonunlar va me'yoriy – huquqiy hujjalarga asoslanish birlamchi hisoblanadi. Shu jihatdan bu borada mamlakatimizda o'ziga xos boshqaruv tajribasi tarkib topganligini eslatib o'tish joiz. Shuni ta'kidlash lozimki, jamiyatimizning hozirgi innovasion rivojlanish sharoitida pedagogik menejment asoslarini ham takomillashtirib borish dolzarb bo'lib turibdi. Bunda nazariya va amaliyot uyg'unligi tamoyiliga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Boshlang'ich ta'lim menejmenti" fani mazmuni. Boshlang'ich ta'lim boshqaruvida menejment asoslariga tayanish muhim ahamiyatga ega. "Menejment" so'zi lotincha bo'lib, tashkil etish, boshqarish, sharoit yaratish, imkoniyatlarni kengaytirish ma'nolarini anglatadi.¹ Shu ma'noda o'zbek tilida menejment va boshqarish atamalari sinonim hisoblanadi. Ayni paytda menejment tushunchasida nisbatan ilmiylik xususiyati mayjud bo'lganligi uchun ko'p hollarda

¹ Ҳасанбоев Ж. ва бошқ. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т.: “Фан ва технология”. 2009. 308 - бет

mazkur atama ishlataladi.

Boshlang‘ich ta’lim menejmenti Myenejment fanining tarkibiy qismi bo‘lib, u boshlang‘ich ta’limni tashkil etish va boshqarishna amalga oshiradi. Shu jihatdan “Boshlang‘ich ta’lim menejmenti” fanining mazmunida quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

- a) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi nazariyasi va amaliyotini o‘rganish;
- b) boshlang‘ich ta’limni demokratik qonuniyatlar asosida boshqarish;
- v) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida yangi va samarali tamoyillarni tadbiq etish;
- g) boshlang‘ich ta’lim menejerlarining reytingini yuritish;
- d) boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlash.

Ushbu masalalar mazkur fanning eng muhim mavqsad va vazifalarini tashkil qiladi. Shu sababli ular bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nazariy bilim va amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lashi taqozo etiladi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim menejmenti asoslari bo‘yicha bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tarkibini tashkil qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim menejmentida quyidagi masalalar bo‘yicha ko‘nikmalarni egallash muhim ahamiyatga ega:

- a) boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish asoslari;
- b) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi mexanizmlari;
- v) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi sam aradorligi;
- g) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini baholab borish omillari.

Mazkur masalalar bo‘yicha oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakaviy kompetensiyalar beriladi. Buning natijasida kelgusida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari vositasida boshlang‘ich ta’lim bosqichini zamonaviy talablar asosida tashkil etish va boshqarishga erishiladi.

Boshlang‘ich ta’lim menejementining bir necha omillari mavjud bo‘lib, ular qonuniylik, me’yoriylik va tamoyillarga asoslanadi. Buning natijasida mazkur fanning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqiladi.

Mamalkatimizda boshlang‘ich ta’lim menejmenti mazmunini

chuqur idrok etish uchun eng avvalo boshlang‘ich ta’limning maqsad va vazifalarini to‘g‘ri o‘zlashtirishga e’tibor berish kerak bo‘ladi. Aynan bunday yondashuv boshlang‘ich ta’lim menejmenti tushunchasini oqilona idrok etish imkoniyatini beradi. Shu sababli mazkur masala bo‘yicha oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kompetensiyalarini tarkib toptirish dolzarb bo‘lib turibdi.

Kuzatishlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talabalar menejment asoslari bo‘yicha qoniqarli tushunchalarga ega. Shu sababli bu borada boshlang‘ich ta’lim menejmenti asoslari bo‘yicha ularning bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish, boshqaruv faoliyatiga tayyorlash hamda boshqaruv asoslari bo‘yicha ularning tashabbuslarini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Bunda asosiy e’tibor boshlang‘ich ta’lim menejementining nazariy, metodologik va amaliy asoslarini o‘zlashtirishga qaratilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Boshlang‘ich ta’lim menejmenti” fani bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganib borish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki Rossiya, Germaniya, AQSH kabi xorijiy mamlakatlarda boshlang‘ich ta’lim menejmenti bo‘yicha muhim pedagogik tadqiqotlar amalga oshirilganligini eslatib o‘tish joiz. Buning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mazkur masala bo‘yicha tadqiqotchilikka jalb qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.


Boshlang‘ich ta’lim menejmentini o‘rganish zaruriyati. Boshlang‘ich ta’lim menejmentini o‘rganish zaruriyati bir necha asoslar bilan belgilanadi. Bunday zaruriyatlarning asosiyлари quyidagilardan iborat:

- a) boshlang‘ich ta’limni oqilona tashkil etishni bilish;
- b) boshlang‘ich ta’lim jarayonini oqilona boshqarish ko‘nikmasini egallash;
- v) boshlang‘ich ta’lim menejmenti nazariyasi va metodologiyasini o‘zlashtirish;
- g) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi bo‘yicha individual malakaga ega bo‘lish;
- d) boshlang‘ich ta’lim menejmenti bo‘yicha bilim va ko‘nikmani rivojlantirib borish.

Boshlang‘ich ta’lim menejmentini o‘rganish ana shunday zaruriyatlar bilan belgilanadi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra,

boshlang‘ich ta’lim menejmenti asoslaridan xabardor bo‘lish birinchidan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini kengaytiradi; ikkinchidan, boshlang‘ich ta’limni talab darajasida tashkil etish va boshqarish imkoniyatlarin beradi; uchinchidan, mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limning sifat ko‘rsatkichlariga erishish sharoitlari kengayadi. Chunki boshlang‘ich ta’lim menejmenti asoslari bo‘yicha nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakaga ega bo‘lish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari vositasida mazkur ta’lim bosqichini rivojlantirish imkoniyatlarini beradi.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim menejmenti asoslari bo‘yicha pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish jarayoni boshlanganligini eslatib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu jarayonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faolligini tarkib toptirish dolzarb bo‘lib turibdi. Chunki boshlang‘ich ta’lim menejmenti asoslari bo‘yicha ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish hozirgi zamon jamiyatimizning extiyojlaridan biridir.



1-rasm. Boshlang‘ich ta’lim menejmenti tushunchasi mazmuni

Ayni paytda, boshlang‘ich ta’lim menejmenti asoslari bo‘yicha o‘quv adabiyotlari avlodini yaratish ham muhim ahamiyatga ega. O‘quv adabiyotlari aynan boshlang‘ich ta’lim menejmenti asoslari bo‘yicha kutilgan darajada bilim va ko‘nikmalarni berishi bilan e’tiborga molikdir.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’lim menejmenti bo‘yicha amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini umumlashtirib va muvofigqlashtirib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning natijasida muammolarni o‘rganishga doir takroriylikning oldi olinadi va yangi muammolar bo‘yicha tadqiqotlarni amalga oshirish ko‘lami kengayadi.

Shunday qilib “boshlang‘ich ta’lim menejmenti” tushunchasini idrok etish uchun pedagogik menejment asoslaridan xabardor bo‘lish, boshlang‘ich ta’lim menejmenti mazmunini bilish va boshlang‘ich ta’lim menejmentini o‘rganish zaruriyatini anglash muhim ahamiyatga ega. E’tibor bering:

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Pedagogik menejment asoslarini nimalar tashkil qiladi?
2. “Boshlang‘ich ta’lim menejmenti” fani mazmunini omillari nimalardan iborat?
3. Boshlang‘ich ta’lim menejmentini o‘rganish zaruriyati deganda nimani tushunasiz?
4. “Boshlang‘ich ta’lim menejmenti” fani mazmunini konspekt qiling va o‘zlashtiring.

2-MAVZU. BOSHLANG‘ICH TA’LIM BOSHQARUVI ME’YORIY ASOSLARI

Reja:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid me’yoriy hujjatlar
2. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga doir pedagogik manbalar
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi bo‘yicha tajribalar

Tayanch tushunchalar: *Boshlang‘ich, ta’lim, tayanch, boshqaruv, asos, me’yor, manba, tajriba, bilim, ko’nikma.*

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid me’yoriy hujjatlar.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish asoslaridan biri uni tashkil etish va boshqaruvga oid me’yoriy hujjatlarni o‘rganish, o‘zlashtirish hamda amaliyotga joriy etishdir. Chunki boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi mazkur ta’lim bosqichining vazifalari ijrosini ta’minlashda eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid me’yoriy hujjatlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- a) qonunlar;
- b) me’yoriy hujjatlar;
- v) strategik hujjatlar.

Boshlang‘ich ta’limga oid qonunlar majmuining asosiylar yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlar tashkil qiladi. Shu jihatdan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 37-moddasida “davlat hizmati” tushunchasi asosida boshqaruvni tashkil etish belgilangan. Unga ko‘ra, ta’lim tizimi, jumladan, boshlang‘ich ta’lim bosqichini tashkil etish va boshqarish davlat xizmatining tarkibini tashkil qiladi. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi davlat miqyosidagi xizmat turi sifatida e’tirof etiladi. Bu ta’lim bosqichi mazkur Konstitusiya moddalari asosida demokratiya, insonparvarlik va bolaparvarlik tamoyillari asosida boshqariladi. Demokratiya boshqaruvda jamoaviylikni, insonparvarlik esa boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga inson qadrini ustuvor qo‘yishni va bolaparvarlik esa boshlang‘ich sind o‘quvchilarining manfaatlariga rioya qilishni anglatadi. Shu sababli Konstituchiyamizning 52-moddasida “davlat

o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qiladi” deya belgilab qo‘yilgan. Aynan mana shu tamoyil boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining konstitusiyaviy-me’yoriy asosini tashkil etadi. Shuningdek, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 26-moddasida ta’lim tizimini, jumladan, boshlang‘ich ta’lim bosqichini boshqarish asoslari belgilab qo‘yilgan. Unda asosiy e’tibor davlat ta’lim talablariga asosan boshqaruvni amalga oshirish va unda demokratik qadriyatlarga asoslanish masalasi qayd etilgan. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida vakolatli shaxslar, jumladan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faol ishtirok etadi. Mazkur me’yoriy asoslarning mavjudligi boshlang‘ich ta’limni qonuniy asosda boshqarish imkoniyatlarini beradi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining muhim me’yoriy asoslaridan biri bu – me’yoriy huquqiy hujjatlardir. Bunday hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabrdagi PF-269-son Qarori bilan “Ma’muriy islohotlar dasturi” tasdiqlangan. Mazkur dasturda ta’lim tizimini, jumladan, boshlang‘ich ta’lim bosqichini yuksak texnologik yondashuvlar asosida boshqarish belgilangan. Unga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida yakka boshchilik asosida boshqaruv amalga oshiriladi va boshqaruv faoliyati to‘g‘risidagi hisobot muntazam ravishda maktab Pedagogik kengashiga taqdim etib boriladi. Shuningdek, “Boshlang‘ich ta’lim Konsepsiysi” me’yoriy hujjatida ham boshlang‘ich ta’limning maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun uni sifatli boshqarish asoslari belgilab qo‘yilgan. Shu ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich ta’lim boshvqaruvida qonunchilikka va me’yoriy hujjatlarga asoslanish boshlang‘ich ta’lim davlat standartlarining tashkiliy qismini tashkil qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining me’yoriy asoslaridan yana biri strategik hujjatlardir. Strategik hujjatlarda sohani rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari va muayyan muddatga mo‘ljallangan vazifalari belgilab qo‘yiladi. Misol uchun, ana shunday strategik hujjatlardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son qarori bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dastur”dir. Mazkur Milliy dasturda ta’lim tizimini, jumladan boshlang‘ich

ta’lim bosqichini strategik boshqarish vazifalari belgilangan. Unga ko‘ra, 1-4-sinflarga xalqaro ta’lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan yangi avlod o‘quv adabiyotlarining joriy etilishi jarayonini boshqarish vazifasini amalga oshirish alohida qayd etilgan. Buning uchun yangi avlod darsliklarining monitoringi, ularni baholash tizimi va prognozlash ishlari amalga oshiriladi. Bu hol boshlang‘ich ta’limni strategik jihatdan boshqarishning eng muhim asoslaridandir. Demak, boshlang‘ich ta’limni boshqarishning strategik hujjatlarida asosiy e’tibor mazkur ta’lim jarayonini monitoring qilish, baholash va prognozlashtirib borishga qaratiladi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining me’yoriy asoslari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan o‘zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki boshqaruv madaniyati ko‘nikmasiga ega bo‘lish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy faoliyatini kuchaytiradi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruviqa doir pedagogik manbalar. Mamalakatimizning boshlang‘ich ta’lim tajribasida mazkur ta’lim bosqichini boshqarishga oid muhim pedagogik manbalar mavjud. Bu o‘rinda ularning eng muhimlariga e’tiborni tortish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur manbalarning asosiyлари quyidagilardan iborat:

- a) eng qadimgi pedagogik manbalar;
- b) o‘rtalarda pedagogik manbalar;
- v) yangi davrdagi pedagogik manbalar.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruviqa oid eng qadimgi pedagogik manbalarning asosiylarini Avesto va xalq ijodi ijodi namunalari tashkil qiladi. Misol uchun, Avesto kitobida bolalar ta’limini Ezgulik tamoyili asosida boshqarish belgilangan. Bunda boshqaruv ishi bilan shug‘ullanuvchi shaxs ezgu niyatli, ezgu fikrli va ezgu faoliyat egasi bo‘lishi kerak.² Buning natijasida bolalar ta’limini demokratik xarakterda va insonparvarlik tamoyili asosida boshqarishga erishilgan. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham bolalar ta’limi jarayonining inson qadri asosida boshqarish belgilab qo‘yilgan. Masalan, ahloqiy jihatdan illatlarga ega shaxslarning

² Авесто. М.Исҳоқов таржимаси. – Тошкент, 2021

bolalar ta’limi bilan shug‘ullanishi ta’qiqlangan bo‘lib, u milliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. Shu sababli dostonlar, ertaklar, maqollar kabi xalq og‘zaki ijodi namunalarida ifodalangan bolalar ta’limi boshqaruviga oid g‘oyalarni o‘zlavshtirish muhim ahamiyatga egadir. Bizning kuzatishimizga ko‘ra, eng qadimgi pedagogik manbalarimizda bola qadri eng ustuvor masalalardan biri hisoblangan va aynan shunday yondashuv asosida amalga oshirilgan.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid eng muhim pedagogik manbalarni o‘rta asrlar (VII-XIX asrlar)da yaratilgan asrlar tashkil etadi. Misol uchun, Abu Nasr Farobiyning “Fozir odamlar shahri” asarida bolalar ta’limi fazilatli kishilar tomonidan boshqarilishi, Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig” asarida mazkur ta’lim bosqichi adolat tamoyili asosida boshqarilishi, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida bolalar ta’limi bilimlar tomonidan boshqarilishi, Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoyi” asarida bolalar ta’limi odobli kishilar tomonidan boshqarilishi asoslab berilgan. Bunday pedagogik manbalarimizda ta’lim jarayonini boshqarishda asosan boshqaruvchi shaxslarning ahloqiy fazilatlariiga e’tibor qaratilgan. Shu jihatdan bugungi kunda ham boshlang‘ich ta’lim menejmenti yuksak ahloqiy fazilatlarga ega kishilar toomonidan boshqarilishi muhim ahamiyatga ega. Bunday manbalarning bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan o‘qib-o‘ragnilishi va o‘zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid navbatdagi muhim manbalar yangi davrda (XX-XXI asrlar)da yaratilgan pedagogik tadqiqotlardan iborat. Bunday pedagoik tadqiqotlarda boshlang‘ich ta’limni ilmiylik tamoyillari asosida boshqarish asoslab berilgan. Misol uchun, Abdurauf Fitratning “Rahbari najod” pedagogik risolasida ta’lim tizimi, jumladan, bolalar ta’limini boshqarishda ilk bor ilmiylik tamoyiliga asoslanish tavsiflab o‘tilgan. Unga ko‘ra, ta’lim tizimi kelgusi istiqbolni mo‘ljallab boshqariladi va buning natijasida ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishga erishiladi. Shu kabi pedagogik tadqiqotlarda boshlang‘ich ta’limni o‘ziga xos tamoyillar asosida boshqarish masmalalari tahlil qilib o‘tilgan. Eslatib o‘tish joizki, Abdurauf Fitrat O‘zbekiston Muorif vaziri smifatida faoliyat yuroitganida mamlakatimizda birinchi bo‘lib, boshlang‘ich ta’lim jarayonini dunyoviy va ilmiy asosda tashkil

etgan. Buning natijasida bugungi kunda boshlang‘ich ta’limni boshqarishda dunyoviylik va ilmiy tamoyillariga asoslanish tarkib topganligini ta’kidlab o’tish joiz.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruviqa oid pedagogik manbalar mamlakatiimz boshlang‘ich ta’limining tadrijiy rivojida muhim o’rein tutadi. Ularni o’zlashtirish boshlang‘ich ta’lim jarayonini boshqarishda tayanch vazifasini bajaradi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi bo‘yicha tajribalar. Mamlakatimiz pedagogik boshqaruvi tajribasida boshlang‘ich ta’limga oid muhim boshqaruv tajribalari mavjudligini ta’kidlab o’tish lozim. Bunday tajribalarda quyidagi xususiyatlar yaqqol ko‘zga tashlanib turadi:


- a) boshlang‘ich ta’lim jarayonini boshqarishda jamoaviylikka asoslanish;
- b) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinu umumiy ta’lim tizimi tarkibida amalga oshirish;
- v) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida individual tajribalarning mavjudligi.

Bunday tajribalar boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining muhim manbalari bo‘lib xizmat qiladi. Shu ma’noda mazkur ta’lim bosqichi boshqaruvida jamoaviylik tajribasi muhim ahamiyatga egadir. Shunga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, sinf rahbarlari va maktab jamoasi tomonidan boshqariladi. Mazkur boshqaruv jarayonini sinf rahbari muvofiqlashtirib boradi. Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablari Pedagogik kengashining boshlang‘ich ta’lim jarayonini jamoaviy boshqarishdagi roli ortib borayotganligini ta’kidlab o’tish joiz. Bunda asosiy e’tibor boshlang‘ich ta’lim muammolari, bu ta’lim bosqichini munosib jihozlash va o‘quvchilarning o’zlashtirish jarayonini nazoratga olish kabi masalalarga qaratilmoqda. Buning natijasida jamoaviylik tajribasi boshlang‘ich ta’lim jarayonini rivojlantirishda muhim omil bo‘lmoqda.

Mamlakatimiz ta’lim tizimi tarkibida boshlang‘ich ta’lim bosqichi boshqaruvi amalga oshirilmoqda. Buning uchun tuman va shahar xalq ta’limi bo‘limlarida maxsus metodistlar, viloyatlar va Qoraqalpog‘iston Respublikasi ta’lim tizimi boshqaruvida boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha alohida bo‘limlar tashkil etilgan.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini ta’lim tizimi tarkibida amalga oshirishning imkoniyatlari shundan iboratki, bu ta’lim bosqichi umumiyl o‘rtalimni maktabgacha ta’lim tizimi bilan bog‘lovchi vazifani bajaradi. Shu sababli keyingi paytlarda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi bo‘yicha alohida yondashuvlar yuzaga kelayotganligini eslatib o‘tish joiz. Bu borada milliy tajribalarni o‘rganish va tahlil qilish dolzarb bo‘lib turibdi. Chunki boshlang‘ich ta’limni ta’lim tizimi tarkibida boshqarish muammolarini umumiyl tarzda va o‘z vaqtida hal qilib borish imkonini beradi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi bo‘yicha individual tajribalar ham mavjud. Unga ko‘ra, mamlakatimiz hududlarida umumiyl o‘rtalim maktablarining O‘quv bo‘limi mudirlari sarasida boshqaruv bo‘yicha tajribali o‘qituvchilar mavjud. Bunday o‘qituvchilar boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida asosiy e’tiborni mazkur ta’lim bosqichi muammolarini hal etishga, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun munosib ish sharoiti yaratib berishga va o‘quvchilar uchun imkoniyatlar majmuuni tarkib toptirishga qaratishadi. Shu jihatdan tajribali o‘qituvchilarining boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid individual tajribalarini o‘rganish, tadqiq etish va ularning eng muhim yutuqlarini ommalashtirish dolzarb bo‘lib turibdi. Bularning barchasi oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan o‘zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.



2-rasm. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining me’yoriy manbalari

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid tajribalar muhim pedagogik manbalar sifatida namoyon bo‘ladi. Ularni o‘rganish va o‘zlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining o‘ziga xos me’yoriy asoslari mavjud. Bu asoslarni oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘zlashtirish muhim ahamiyatga egadir.

E’tibor bering:

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid me’yoriy hujjatlarni nimalar tashkil qiladi?
2. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga doir pedagogik manbalar deganda nimalarni tushunasiz?
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi bo‘yicha tajribalar nimalardan iborat?
4. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga doir pedagogik manbalarni o‘zlashtiring.

3-MAVZU: BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI TASHKIL QILISH TAYANCHLARI

Reja:

1. Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish metodlari
2. Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish tizimi
3. Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishning xorijiy tajribasi

Tayanch tushunchalar: *Ta’lim, boshlang‘ich, metod, tizim, xorijiy tajribasi, bilim, ko’nikma, malaka.*

Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish metodlari. Boshlang‘ich ta’lim sifatiga erishish uchun mamlakatimizda bir necha omillar mavjud. Ana shunday omillardan biri boshlang‘ich ta’limni oqilona tashkil etishdir.

Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishda eng muhim metodlarga tayanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki metod bu – boshlang‘ich ta’lim jarayonini talab darajasida tashkil etishning yo‘nalishlari, mexanizmlari va vositalari majmuidir.³ Shu ma’noda boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishning metodlarini tanlashda boshqaruв omillari mavjud bo‘lgan mexanizmlar va vositalarga tayanish kutilgan samarani beradi. Bunday metodlarning asosiyлари quyidagilardan iborat:

- a) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy, ruhiy, aqliy va yosh xususiyatlariга mos sinf xonalarni tanlash;
- b) boshlang‘ich ta’limni me’yoriy hujjatlar asosida tashkil etish;
- v) boshlang‘ich ta’lim jarayonini rejimi va muddatini aniq belgilab qo‘yish;
- g) imkon qadar tajribali o‘qituvchilarni boshlang‘ich ta’limga jalb etish;
- d) boshlang‘ich ta’lim jarayonini pedagogik, gigiyenik va psixologik jihatdan nazorat qilib borish.

Bu metodlarga asoslanish boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishda aniq va zamonaviy imkoniyatlarni beradi. Misol uchun, sinf

³ Қаранг: Ҳасанбоев Ж. ва бошқ. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Тошкент, 2009

xonalarning yuksak talablarga javob berishi boshlang‘ich ta’limning eng muhim vazifalaridan biridir. Bunda mashg‘ulotlar o‘tkaziladigan sinf xonalarning qulayligi, bahavoligi, shamollatish imkoniyatlariga egaligi, yorug‘likning yuqori darajada bo‘lishi, qishda issiq va kuz oylarida salqinlik beruvchi zamonaviy texnik jihozlarga egaligi kabi talablarga asosiy e’tibor qaratilishi kerak. Bularning barchasi boshqaruv nuqtai nazaridan boshlang‘ich ta’limni tashkil etish xususiyatlarini bergilaydi.

Mamalkatimiz va jahon mamlakatlari boshlang‘ich ta’lim jarayonida me’yoriy hujjatlarning to‘liq amal qilishi, boshlang‘ich ta’lim jarayonining aniq rejimga ega bo‘lishi kabi masalalar bo‘yicha ham o‘ziga xos tajriba mavjud. Bunday tajribalardan kelib chiqib boshlang‘ich ta’limni tashkil etish menejmenti nazariyasini nuqtai nazaridan to‘g‘ri hisoblanadi.

Ayni paytda bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim jarayonida tajribali o‘qituvchilarni jalg qilish imkoniyatlarini kengaytirib borish taqozo etiladi. Bu borada bizning yondashuvimizga ko‘ra, yosh boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar tajribali o‘qituvchilar bilan Ustoz-shogird an’anasiga binoan hamkorlik qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki tajribali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar boshlang‘ich ta’limni tashkil etishda mavjud imkoniyatlar, muhit va shart-sharoitlardan o‘rinli foydala oladilar. Bunday tajribalar yosh boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar uchun muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich ta’limni tashkil etishda uning pedagogik, psixologik va gigiyenik jihatdan qoidalarga javob berishi hamda mazkur jarayonni muntazam nazorat qilib borish imkoniyatlaridan foydalanish taqozo etiladi. Menejment nazariyasiga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim nazoratini am alga oshirish o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun o‘ziga xos sharoitlarni muntazam yaratib borishga asos bo‘ladi. Misol uchun, menejment metodikaning tavsiyasiga ko‘ra, boshlang‘ich ta’limda yuksak gigiyenik qoidalargi rioya qilish mazkur ta’lim bosqichini amalga oshirishning omillaridan biri hisoblanadi. Bunda sinf xonalar, o‘quvchilar va umumiy boshlang‘ich ta’lim muhiti eng yuksak gigiyenik talablarga javob berishi kerak. Buning natijasida boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘zlashtiirish va uning sifatli ko‘rsatkichlariga erishish imkoniyatlariga ega bo‘linadi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’limni menejment nazariyasini va

metodikasi nuqtai nazaridan tashkil etish uni boshqarishning asosiy tayanchlaridan biridir.

Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish tizimi. Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishning o‘ziga xos tajribadan o‘tgan tizimi mavjud. Shu ma’noda menejment nazariyasiga ko‘ra, boshlang‘ich ta’limni tashkil etishda quyidagi tizimga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) boshlang‘ich ta’limda quyidan yuqoriga qarab (iyerxaik) tashkil etish tizimi;

b) boshlang‘ich ta’limni hududlar kesimida (gorizontal) tashkil etish tizimi;

v) boshlang‘ich ta’limni zamonaviy talab va ehtiyojlarga mos ravishda (demokratik) tashkil etish tizimi;

g) boshlang‘ich ta’limni insonparvarlik (gumanistik) tashkil etish tizimi.

Mazkur tizimlarning barchasi boshlang‘ich ta’lim menejmenti nuqtai nazaridan keng imkoniyatlarga ega. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limni quyidan yuqoriga qarab tashkil qilish tajribasi mamlakatimizda mavjud. Unda umumiy o‘rta ta’lim maktabidan boshlab, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligigacha bo‘lgan jarayonda boshlang‘ich ta’limni tashkil etish va uni boshqarish tizimi amalda bo‘lib kelmoqda. Bunday tizim mamlakat miqyosida boshlang‘ich ta’limni tipiklashtirilgan tarzda amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Boshlang‘ich ta’limni hududlar tizimida tashkil etish ham muhim imkoniyatlar ega. Bunda muayyan tuman hududidagi qishloq va shaharlarda joylashgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich ta’lim jarayoni aniq imkoniyatlar va shart-sharoitlardan kelib chiqib tashkil etiladi. Bu tizim shunday hususiyatga egaki, unga ko‘ra, hududlar ehtiyojidan kelib chiqib boshlang‘ich ta’limning muayyan o‘quv fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o‘qitish asosida tashkil etish mumkin. Bunday tajriba ayniqsa, xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimida keng qo‘llanishini eslatib o‘tish joiz. Mamlakatimizda ham tabiiy fanlar yoki xorijiy tillarni chuqurlashtirib o‘qitishga moslashtirilgan boshlang‘ich ta’lim jarayoninin tashkil etish tajribasi tarkib topganligini ta’kidlab o‘tish joiz.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limni tashkil etishda zamonaviy talablar va ehtiyojlar tizimi ham muhim ahamiyatga ega. Misol

uchun bu borada keyingi paytdarda mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayoniga TIMSS, PISA kabi xalqaro ta’lim dasturlarining joriy etilayotganligi ana shunday extiyojlarning yaqqol namunasidir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni asos bo‘layotganligini alohida ta’kidlash lozim.

Butun dunyoda va mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limni tashkil etishning insonparvarlik tizimi ham amal qilib kelmoqda. Unga ko‘ra, jinsi, kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar har bir bolani boshlang‘ich ta’lim bilan qamrab olish, boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarining huquqlarini ustuvor qo‘yish va jismoniy yoki ruhiy nuqsoni bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’lim bilan qamrab olish tamoyillariga asosan boshlang‘ich ta’lim jarayoni tashkil qilindi. Mazkur tizim boshlang‘ich ta’lim va ehtiyoji mavjud barcha bolalarni qamrab olishi bilan muhim ahamiyatga ega. Shu sababli misol uchun, mamlakatimizda jismoniy yoki ruhiy nuqsoni mavjud bolalar uchun maxsus ta’lim muassasalari va oilada ta’lim jarayoni amalga oshirilmoqda. Bunday yondashuv boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishning insonparvarlik tizimini idrok etish imkonini beradi.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’limni tashkil etish tizimi keng imkoniyatlardan va shart-sharoitlarga asoslanishi bilan amaliy ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishning xorijiy tajribasi. Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishning o‘ziga xos tajribalari ham mavjud. Bunday tajribalar dunyo mamlakatlarida asrlar davomida sinovdan o‘tib kelmoqda va o‘zining samaradorlik darajasi bilan e’tiborni tortadi. Mazkur tajribalarning Yevropa va Osiyo mamlakatlarida kuzatiladigan asosiyлari quyidagilardan iborat:

- a) boshlang‘ich ta’limni nodavlat shapklda tashkil etish tajribasi;
- b) boshlang‘ich ta’limni ilmiy asoslarda tashkil etish tajribasi;
- v) boshlang‘ich ta’limni jamiyatning strategik bo‘g‘ini sifatida tashkil etish tajribasi;
- g) boshlang‘ich ta’limni ixtisoslashtirilgan tarzda tashkil etish tajribasi.⁴

⁴ Қаранг: Раҳимова Д. Стратегик менежмент. – Тошкент, 2020

Boshlang‘ich ta’limni nodavlat shaklda tashkil etish tajribasi Germaniya, Fransiya, Misr, Saudiya Arabistoniga kabi mamlakatlarda keng qo’llaniladi. Bunda asosan boshlang‘ich ta’lim xomiylik mablag‘lari asosida ta’minlanadi va bu hol homiy shaxsning boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlarini tanlashda ishtirok etishiga ham imkon beradi. Nodavlat shakldagi boshlang‘ich ta’lim faqat o‘qitishga yo‘naltirilganligi bilan o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi. Mamlakatimizda ham nodavlat shakldagi boshlang‘ich ta’limni tashkil etish yo‘lga qo‘yilgan. Ayni paytda, ularda davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va o‘quv adabiyotlari davlat tomonidan ishlab chiqilgan asoslarga tayanadi. Shuningdek, nodavlat shakldagi boshlang‘ich ta’limda o‘quv jarayoni rejimi ta’lim muassasasi rahbariyati tomonidan tashkil qilinishini eslatib o‘tish joiz. Bu tizimda o‘quvchilarning va o‘qituvchilarining erkin faoliyat yuritishiga asosiy e’tibor qaratiladi.


Boshlang‘ich ta’limni ilmiy asosda tashkil etish bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning o‘ziga xos tajribasi mavjud. Unga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlari, talablari va standartlari pedagogik ilmiy-tadqiqotlar tavsiyalari asosida tanlanadi. Bu tizimda eng muhimi ilmiy asoslangan ta’lim berish amalga oshiriladi. Natijada boshlang‘ich ta’lim davridayyoq o‘quvchilarini kasb va hunarlar turlari bilan chuqur tanishtirish jarayoni amalga oshiriladi hamda ularning tabiiy layoqatlarini rivojlantirish birlamchi vazifalardan hisoblanadi. Mazkur tizim Rossiya, Finlandiya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarning boshlang‘ich ta’lim jarayonida keng amal qiladi.

Boshlang‘ich ta’limni tashkil etishning xorijiy tajribalaridan biri mazkur ta’lim bosqichini strategik bo‘g‘in sifatida amalga oshirishdan iborat. Unga ko‘ra, bu tajribada asosiy maqsad barcha bolalarni boshlang‘ich ta’lim bilan qamrab olish va ularni savodxonlik darajasini tarkib toptirishdir. Buning natijasida boshlang‘ich ta’limdan keyin o‘quvchilar ta’limning turli turlarida o‘quv jarayonini davom ettiradi. Eslatib o‘tish joizki, mazkur tajriba ham mamlakatimizda tarkib topa boshladи. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini boshlang‘ich ta’limdan keyin umumiy o‘rtta ta’lim maktablari, Prezident maktablari, ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida o‘qishi mumkin. Shu jihatdan boshlang‘ich

ta'limni strategik bo‘g‘in sifatida tashkild etish tajribasi muhim imkoniyatlarni beradi.

Boshlang‘ich ta’limni ixtisoslashtirilgan tarzda tashkil etish tajribasi ham mavjud. Bunda boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarning qiziqishi, layoqati, jisomniy imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda tashkil qilinadi. Misol uchun, xorijiy mamlakatlarda texnologiya asoslari bilan keng tanishtiruvchi boshlang‘ich ta’lim jarayoni ham mavjud. Bunda o‘quvchilar asosan texnik jihozlar, rabota texnikalar va meltimediali texnik vositalarga asoslangan boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘qiydi. Shuni e’tiborga loyiqliki, boshlang‘ich ta’limni tashkil etishning bu tajribasida o‘quvchilarni qat’iy tanlov assosida qabul qilish tizimi amal qiladi. Natijada boshlang‘ich sinflarda layoqat va qiziqish nuqtai nazaridan umumiy xususiyatlarga ega o‘quvchilar ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’limni tashkil etishning xorijiy tajribasi ham o‘ziga xos imkoniyatlarni berishi bilan diqqatni tortadi.



3-rasm. Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish tayanchlari mazmuni

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish tayanchlarini o‘zlashtirish va idrok etish muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’lim menejementi nuqtai nazaridan bunday tayanchlarning eng muhimlarini boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish metodlari, uning o‘ziga xos tizimlari va xorijiy tajribalari tashkil qiladi. Buning natijasida boshlang‘ich ta’limni boshqaruv nuqtai nazaridan tashkil qilish imkoniyatlariga ega bo‘linadi. E’tibor bering:

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish metodlari deganda nimalarni tushunasiz?
2. Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish tizimi asoslari nimalardan iborat?
3. Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishning xorijiy tajribasi qanday xususiyatlarga ega?
4. Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishning xorijiy tajribasini o‘zlashtiring va taqdimot tayyorlang.

4-MAVZU. BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI TASHKIL QILISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Reja:

1. Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishning masofaviy ta’lim texnologiyasi
2. Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishning klaster texnologiyasi
3. Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishning raqamli texnologiyasi

Tayanch tushunchalar: *Ta’lim, boshlang‘ich, menejment, asos, texnologiya, bilim, ko’nikma, malaka, masofa, klaster.*

Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish va boshqarish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, unda qulay va samarali zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Shu jihatdan bu o‘rinda e’tiboringizni mazkur masalaning zamonaviy texnologiyalari tahliliga tortamiz.

Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishning masofaviy ta’lim texnologiyasi. Ijtimoiy murakkab sharoitlar va vaziyatlar ta’lim jarayonini turli texnologiyalarga asosan tashkil etish hamda boshqarishni taqozo etadi. Chunki istalmagan vaziyatlar, murakkab holatlar va professional pedagoglarning yetishmasligi yangicha texnologiyalar asosida faoliyat yuritishni taqozo etadi. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’limni tashkil etish va boshqarishda masofaviy texnologiyadan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Masofaviy ta’lim texnologiyasi – bu muayyan masofadan turib ta’lim va tarbiya jarayonini axborot-kommunikasion vositalarga tayangan holda amalga oshirish ta’lim shaklidir. Bunda asosiy e’tibor ta’limni tashkil etish va boshqarishda samaradorlik masalasiga qaratiladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish va boshqarishning masofaviy ta’lim texnologiyasi asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- a) boshlang‘ich ta’limni masofadan turib tashkil qilish;
- b) boshlang‘ich ta’lim jarayonini masofadan turib boshqarish;
- v) bu faoliyatda axborot – kommunikasion vositalarga tayanish.

Bugungi kunda mamlakatimizda kompyuter, TV kabi axborot-kommunikasion vositalardan foydalanib, boshlang‘ich ta’limni

tashkil etish tajribasi mamlakatimizda tarkib topdi. Buning uchun kompyuterga asoslangan o'qitish texnologiyalari ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilmoqda.⁵ Shu ma'noda mazkur tajribadan foydalangan holda boshlang'ich ta'limni tashkil etish va boshqarish bu jarayonda insonning salbiy ta'smiri omilini kamaytiradi. Ayni paytda, masofaviy ta'lim texnologiyasi o'quvchilar, o'qituvchilar, maktab jamoasi va ota-onalar bilan hamkorlik qilish uchun keng imkoniyatlarni beradi. Bu texnologiyadan oqilona foydalanish uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uning asoslarini chuqr o'zlashtirishi taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonini masofadan turib boshqarish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun maxsus dastur asosida kompyuterga boshlang'ich ta'limni boshqarish asoslari, talablari va tegishli ma'lumotlar joylashtiriladi. Mazkur ma'lumotlar asosida mutaxassis-o'qituvchi hududlardagi umumiyl o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarini boshqarishda ishtiroy etadi. Buning natijasida sinf rahbarlari uchun keng imkoniyatlar paydo bo'ladi. Chunki mutaxassis-o'qituvchi masofadan turib boshlang'ich ta'lim jarayonini boshqarishi o'z tajribaliga asosan ishtiroy etadi.

Axborot-kommunikasion vositalarga tayangan boshlang'ich ta'lim boshqaruvi texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Bunday texnologiya kompyuterli dasturga asosan boshqaruvga oid barcha ma'lumotlar, talablar mezonlar va kutiladigan samaradorlik ko'rsatkichlarini qamrab olishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim metodikasining "Kelajak o'qituvchisi ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi" ana shunday masofadan turib boshlang'ich ta'limni boshqaritshda muhim imkoniyatlarga ega.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limni tashkil qilish va boshqarishda masofaviy ta'lim texnologiyasi nazariy, amaliy, metodik va texnologik jihatdan keng imkoniyatlarni beradi. Shu sababli oliv pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining masofaviy ta'lim texnologiyasi asoslarini chuqr

⁵ Мардонов Ш.М. Педагогика фанидан ўқитишнинг электрон-модули дидактик таъминотини ишлаб чиқиши технологияси. – Тошкент, 2001. Умарова З. Бошланғич синф ўқувчиларида педагогик конфликтларни бартараф этиш технологияси. – Тошкент, 2001. ва х.к.

o‘zlashtirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishning klaster texnologiyasi. Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish va bogshqarishda hozirgi kundagi zamonaviy texnologiyalardan biri – bu klaster texnologiyasidir.

Klaster texnologiyasi – bu mutaxassislar, ta’lim tashkilotlari, professor-o‘qituvchilar va amaliy faoliyatdagi o‘qituvchilarning o‘zaro hamkorligiga asoslangan jarayondir.⁶ Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limni tashkil etish va boshqarishda klaster texnologiyasining asoslarini quyidagilar tashkil qiladi:

- a) boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish va boshqarishda mutaxassislar bilan hamkorlik;
- b) boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish va boshqarishda oliy pedagogik ta’lim muassasalari bilan hamkorlik;
- v) boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish va boshqarishda ta’lim manfaatdorlari bilan hamkorlik qilish.

Boshlang‘ich ta’limni tashkil qiloish va boshqarishda menejment mutaxassislar bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday mutaxassis inson omili kam bo‘lgan boshqaruv vositalarini qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi va uning uchun boshlang‘ich ta’lim ishtirokchilarining barchasi sub’yekt hisoblanadi. Shu jihatdan menejment mutaxassis o‘quvchilar, o‘qituvchilar, maktab jamoasi va ota-onalar bilan bevosita boshlang‘ich ta’lim muammolari bo‘yicha hamkorlikni amalga oshiradi. Natijada boshlang‘ich ta’limning samaradorlik ko‘rsatkichlari kuchayadi. Chunki menejment mutaxassis boshqaruvda asosiy e’tiborni boshlang‘ich ta’lim muammolarini hal etishga qaratadi.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablari hududlardagi oliy pedagogik ta’lim muassasalariga biriktirilgan. Shu sababli umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich ta’lim bosqisini tashkil qilish va boshqarishda oliy pedagogik ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Bunda oliy pedagogik ta’lim muassasalarining professor-o‘shqituvchilar boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlari bo‘yicha yangi o‘quv materiallari tayyorlashi, o‘quvchilar va o‘qituvchilar duch kelayotgan murakkabliklarni

⁶ Мухамедов Г., Ходжамкулов У. Педагогик инновацион таълим кластери: тавсиф, тасниф, таъриф. – Тошкент, 2021

hal qilishi, boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini ishlab chiqishi bilan ishtirok etadi. Shu jihatdan professor-o‘qituvchilarining boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish va boshqarishdagi ishtiroki maslahat shaklida amalga oshadi. Bu hol boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish va boshqarishda samaradorlikka erishishning muhim imkoniyatlarini beradi.

Boshlang‘ich ta’limni tashkil etish va boshqarishda ta’lim manfaatdorlari bilan hamkorlik qilish ham klaster texnologiyasining negizlaridan biri hisoblanadi. Bunda “ta’lim manfaatdorlari” deganda ota-onalar, umumiy o‘rtta ta’lim muassasalari, Prezident va ijod maktablari nazarda tutiladi. Chunki mazkur ta’lim manfaatdorlari kelgusida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim va tarbiya jarayonini davom ettiradi. Shu jihatdan ta’lim manfaatdorlari boshlang‘ich ta’limni tashkil etish va boshqarishda o‘zlarining tavsiyalari, extiyojlari hamda amaliy faoliyatlarini bilan ishtirok etadi. Bundan maqsad boshlang‘ich ta’limda sifat ko‘rsatkichlarini yuksaltirishdir.

Diqqatqilinsa, boshlang‘ich ta’limni tashkild qilish va boshqarishning klaster texnologiyasi keng imkoniyatlarni beradi. Bu imkoniyatlarning asosiyalarini hamkorlik tashkil qiladi. Aynan hamkorlik boshqaruvda klaster texnologiyasining o‘ziga xos asoslaridan biridir.

Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishning raqamli texnologiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 yanvardagi PF-34-son Farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasida raqamli texnologiyalarni joriy etish konsepsiysi” tasdiqlangan. Bu konsepsiyada ta’lim jarayoniga ham raqamli texnologiyalarni joriy etish vazifasi qo‘yilgan. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limni tashkil etish va boshqarishda raqamli texnologiyaning asosini quyidagilar tashkil qiladi:

- a) ta’lim va uni boshqaruv jarayonida inson omilini kamaytirish;
- b) ta’lim va uning boshqaruvida xorijiy texnologiyalarni joriy etish;
- v) ta’lim va uning boshqaruvida demokratik tamoyillarga asoslanish.

Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish va boshqarishda inson olmilini kamaytirib borish muhim ahamiyatga ega. Inson omilini

kamaytirish deganda boshqaruv jarayonida tashqi ta'sir kuchlarining ishtirok etmasligi nazarda tutiladi. Misol uchun, tushunchaga ega bo'Imagan ota yoki onalar boshlang'ich ta'lim jarayonini amalga oshirish va uni boshqarishda ishtirok etmasligi kerak. Chunki bu jarayon davlat ta'lim standartlari va talablariga qat'iy asoslanadi. Aynan ana shu tamoyilga asosan raqamli texnologiyaga tayangan holda boshlang'ich ta'limni tashkil etish va boshqarish inson omilini kamaytiradi.


Boshlang'ich ta'limni tashkil etish va boshqarishda raqamli texnologiyaning asoslaridan biri tajriba-sinovdan o'tgan xorij texnologiyalariga asoslanishdir. Bu borada Rossiya Federasiyasida boshlang'ich ta'lim boshqaruvida ilmiylikka, germaniya Respublikasida amaliy samaradorlikka, AQSHda esa demokratik qadriyatlarga amal qilinishini eslatib o'tish joiz. Shu ma'noda boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishda xorijiy mamlakatlar texnologiyalarini o'rganib borish hamda ularning yutuqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan asosiy maqsad boshlang'ich ta'limda sifat ko'rsatkichlarini kuchaytirishdir.

Boshlang'ich ta'limni tashkil etish va boshqarishda raqamli texnologiyaning yana bir omillaridan biri bu – demokratik tamoyillarga asoslanishdir. Unga ko'ra, ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning huquqlari, manfaatlari hamda erkinliklari ustuvor qo'yilgan holda boshlang'ich ta'lim jarayoni boshqariladi. Buning natijasida qog'ozbozlik, to'rachilik kabi byurokratik illatlarning boshqaruvda ta'siri kamayadi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishda demokratik tamoyillarga tayanish xorijiy mamlakatlarda ommalashgan. Bu borada Osiyo mamlakatlaridan Gongkong va Indoneziya mamlakatlari ham o'ziga xos tajribaga ega ekanligini eslatib o'tish joiz.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limni tashkil etish va boshqarishda raqamli texnologiyadan foydalanish inson omilini susaytirish, demokratik qadriyatlarga asoslanish hamda ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning huquqlarini ustuvor qo'yish imkoniyatlarini beradi. Mazkur asoslar oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limni tashkil etish va boshqarishda

zamonaviy texnologiyalarga asoslanish muhim ahamiyatga ega. Bunday texnologiyalarning eng muhim asosiyлари masofaviy ta’lim texnologiyasi, klaster texnologiyasi va raqamli texnologiyalardan iborat ekanligini eslatib o’tish joiz. E’tibor bering:



4-rasm. Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishning zamonaviy texnologiyalari omillari

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishning masofaviy ta’lim texnologiyasi deganda nimalarni tushunasiz?
2. Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishning klaster texnologiyasi asoslarini nimalar tashkil qiladi?
3. Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishning raqamli texnologiyasi mazmuni nimalardan iborat?
4. Boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish va boshqarishning klaster texnologiyasini o‘zlashtiring?

5-MAVZU. BOSHLANG‘ICH TA’LIM BOSHQARUVINI O’RGANISH ZARURIYATI

Reja:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini o’rganish ehtiyojlari
2. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini o’rganish zaruriyat
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini o’rganishning kasbiy ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: *Boshldang‘ich, ta’lim, boshqaruv, zaruriyat, o’rganish, ehtiyoj, kasb, amaliyot.*

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini o’rganish ehtiyojlari. Mamalakatimizda boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish va uning rivojitni ta’minlash uchun boshlang‘ich ta’lim menejmenti muhim o’rin tutadi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini o’rganishning bir necha ehtiyojlari mavjud. Bunday ehtiyojlarning asosiyalarini quyidagilar tashkil qiladi:

- a) boshlang‘ich sinf o’quvchilarining o’zlashtirish darajasini kuchaytirish;
- b) boshlang‘ich sinf o’qituvchilarining faoliyat samaradorligini ta’minlash;
- v) boshlang‘ich ta’lim jarayonini muntazam optimallashtirib borish.

Boshlang‘ich sinf o’quvchilarining o’zlashtirish jarayonini kuchaytirish boshlang‘ich ta’lim menejmentining asosiy vazifalaridan biri sifatida qaraladi. Buning uchun qulay va maqbul boshlang‘ich ta’lim jarayonini tashkil qilish, o’quvchilarining o’zlashtirishi sharoitlarini yaratish va ularni istalmagan salbiy ta’sirlardan himoya qilish muhim ahamiyatga ega. Mazkur masalalar boshlang‘ich ta’lim menejmenti tomonidan amalga oshiriladi. Shu jihatdan o’quvchilarining o’zlashtirish jarayoni boshlang‘ich ta’lim boshqaruvidagi eng muhim omillardan biri hisoblanadi va boshlang‘ich ta’limning asosiy maqsadi ham shundan iborat. Mana shu xususiyatlarga ko’ra, boshlang‘ich ta’lim menejmenti umumiy menejmentdan farq qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim menejmentining asosiy vazifalaridan yana biri bu boshlang‘ich sinf o’qituvchilariga munosib sharoit yaratib

berishdan iborat. Unga ko‘ra, vaqt rejimi va muddatiga amal qilgan holda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ish faoliyati tashkil qilinishi, ularning dam olishlari uchun sharoitlar yaratilishi va ularni kasb kasalliklaridan muhofaza qilish taqozo etiladi. Mazkur masalalar ham boshlang‘ich ta’lim menejmenti tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining asoslari butunlay yangilanib borayotganligini ta’kidlash lozim. Bunda asosiy e’tibor boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyat sharoiti bo‘yicha tashkiliy tadbirdlarni amalga oshirishga qaratilishi kerak.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonini optimallashtirib borish vazifasi ham boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Unga ko‘ra, sinfxonalarining gigiyena-tibbiyot qoidalariga javob berishi, ularning zamonaviy texnologiyalar asosida jihozlanishi, ta’lim jarayoni uchun eng zaruriy laboratoriya aslohalarining mavjudligi va boshlang‘ich ta’lim jarayonini metodik jihatdan qulaylashtirib borish tadbirdlari amalga oshiriladi. Bunday optimallashtirish boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining eng muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining boshlang‘ich ta’lim menejmenti asoslari bo‘yicha kasbiy bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi taqozo etiladi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim menejmentini o‘rganish extiyojlari muhim xususiyatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi. Bu ehtiyojlar idrok etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini o‘rganish zaruriyati. Mamlakatimizda keyingi paytlarda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining asoslari va vazifalar ko‘lami kengayib bormoqda. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini o‘rganish zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- a) boshlang‘ich ta’lim jarayonini har qanday vaziyatga moslash-tirib borish;
- b) boshlang‘ich ta’lim jarayoni samaradorligini ta’minlash;
- v) boshlang‘ich ta’lim jarayonining asos omillarini yangilab borish.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonini har qanday vaziyatga moslashtirib borish muhim vazifalardan biridir. Bunda pandemiya kabi ijtimoiy murakkabliklar vaqtida orttirilgan tajribalardan kelib chiqib,

boshlang‘ich ta’lim jarayonini har qanday vaziyatga moslavshtrish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun, zaruriy hollarda boshlang‘ich ta’lim masofaviy o‘qitish shakli asosida amalga oshiriladi. Lekin bunda an’anaviy o‘qitish shakli kabi qo‘yilgan vazifalarga to‘liq erishilishi kerak. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi ana shunday vazifalarning ijrosini ta’minalash masalasi bilan shug‘ullanadi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi izchil ravishda boshlang‘ich ta’lim jarayonini turli vaziyatlarga moslashtirib borish bilan shug‘ullanishi muhim amaliy vazifadir. Buning natijasida vaziyatli o‘qitish shakllariga ega bo‘linadi.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim samaradorligini ta’minalash mazkur ta’lim boshqaruvining asosiy faoliyatlaridan biridir. Chunki boshlang‘ich ta’lim samaradorligini ta’minalash uchun davlat ta’lim standartlari va talablari to‘liq ijro etilishi, o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun munosib ta’lim muhiti yaratilishi, mazkur ta’lim bosqichining muntazam ravishda yangi avlod o‘quv adabiyotlari bilan ta’minalab borilishi taqozo etiladi. Bu vazifalarning ijrosini ta’minalash boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining faoliyat asoslaridan biridir. Agar ta’kidlangan vazifalarning ijrosi ta’minalmasa, boshlang‘ich ta’lim samaradorligiga kutilgan darajada erishib bo‘lmaydi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini amalga oshirishda strategik rejallarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonining asos omillari muntazam yangilanib bormoqda. Misol uchun, ulardan biri boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlashdir. Bu yangi asos boshlang‘ich ta’lim jarayonining vazifalar ko‘lamini ham kengaytiradi. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlashning nazariy, didaktik, metodik va amaliy asoslarini ishlab chiqish ishlarini aynan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi tashkil qiladi. Buning uchun byudjet mablag‘lari, beg‘araz tushumlar va grantlar asosida boshlang‘ich ta’lim jarayonining asos omillarini kuchaytirish amalga oshiriladi. Shu jihatdan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mazkur masala bo‘yicha ko‘nikmalarni egallashi ularning kasbiy kompetensiyasi ko‘lamini kengaytirishga xizmat qiladi.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruini o‘rganish zaru-

riyati eng muhim masalalarni qamrab olishi bilan diqqatni tortadi. Shu jihatdan ulavr bo'yicha ko'nikmalarini egallah dolzarb bo'lib turganligini ta'kidlab o'tish lozim.

Boshlang'ich ta'lim boshqaruvini o'rganishning kasbiy ahamiyati. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning kompetensiyalarini kengaytirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim boshqaruvini o'rganishning kasbiy ahamiyati quyirdagilar bilan belgilanadi:


- a) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshqaruv bo'yicha ko'nikmalarini tarkib toptirish;
- b) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'lim boshqaruvining turli metodlari bilan qurollantirish;
- v) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining istiqbolli rejalar tuza olish malakasi bilan ta'minlash.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining oliy pedagogik ta'lim jarayonida ta'lim boshqaruvi asoslari bo'yicha ko'nikmalarini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Bunda ularning boshlang'ich ta'limni tashkil qila olish, boshlang'ich ta'lim jarayonini jihozlashni bilish, o'quvchilarni boshqara olish va metodik kengashlarda boshldang'ich ta'lim muammolariga doir takliflar taqdim qila olish ko'nikmalarini tarkib toptirish muhimdir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadi, yosh boshlang'ich sinf o'qituvchilari ko'p hollarda o'qituvchilar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslarida ta'lim boshqaruvi asoslari bo'yicha ko'nikmalarini egallahadi. Bugungi kunda esa bunday ko'nikmalarini egallahni oliy pedagogik ta'lim jarayonida yo'lga qo'yish dolzarbyu bo'lib turibdi. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy faoliyatining dastlabki kunidayoq boshqaruv jarayoniga duch keladi.

Mamlakatimizda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim boshqaruvni metodlari bilan qurollantirish yangi yonda-shuvlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunda boshqaruvni tashkil qilish, boshqaruvini me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirish, boshlang'ich ta'lim boshqaruvi jarayonida ta'lim oliyvchilarning huqularini ustuvor qo'yish va boshqaruvda demokratik tamoyillarga amal qila olish metodlari bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini qurollantirish taqozo etiladi. Aynan oliy pedagogik ta'lim jarayonida ta'lim boshqaruvining

mazkur metodlari bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qurollantirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki talabalarning haftaik pedagogik amaliyoti mazkur ishni amalga oshirishda eng muhim amaliy omillaridan biri sifatida tayanch vazifasini o'taydi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim boshqaruvi asoslari bo'yicha turli metodlarni amaliy jihatdan o'zlashtirishi yuzaga keladi.

Jamiyatimizning hozirgi innovasion rivojlanish jarayoni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshlang'ich ta'lim bo'yicha va uning boshqaruviga doir istiqbolli rejalar tuza olish malakasi bilan qurollantirishni taqozo etadi. Shu ma'noda boshlang'ich ta'lim boshqaruviga istiqbolli rejalar bir oylik, choraklik va o'quv yiliga asosan tuziladi. Ayni paytda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozgi ta'tili davrida boshlang'ich ta'lim boshqaruvining o'zga metodi qo'llaniladi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozgi ta'tilini munosib o'tkazishlari uchun sharoitlar yaratib berish va uni nazoratga olish bilan cheklaniladi. Shu ma'noda o'quvchilarning yozgi ta'til davridagi faoliyati bo'yicha qisqa muddatli reja tuziladi. O'quvchilarning ta'lim jarayonida faoliyati bo'yicha ta'kidlangan muddatli istiqbolli rejalar tuziladi. Bunday rejalarни tuza olish malakasi aynan oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.



5-rasm. Boshlang'ich ta'lim boshqaruvini o'rGANISH ehtiyojlari

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini o‘rganishning kasbiy ahamiyati aynan amaliy masalalar bilan belgilanadi. Shu sababli mazkur masalani chuqur idrok etish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun zaruriyatdir.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini o‘rganish zaruriyati bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini kengaytirish bilan belgilanadi. Bu bilan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘z faoliyatida istalmagan muammolarni oldini olish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi asoslari bo‘yicha kasbiy komptensiyalarini berishni kuchaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. E’tibor bering:

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini o‘rganish ehtiyojlari deganda nimalarni tushunasiz?
2. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini o‘rganish zaruriyati nimalar bilan belgilanadi?
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini o‘rganishning kasbiy ahamiyati asoslari nimalardan iborat?
4. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini o‘rganishning kasbiy ahamiyatini konspekt qiling va o‘zlashtiring.

Birinchi modul bo‘yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. // www.ziyonet.uz
2. Ahliddinov R. Maktabni boshqarish san’ati. – Toshkent, 2006
3. Rahimova D. Strategik menejment. – Toshkent, 2018

2-MODUL. BOSHLANG‘ICH TA’LIM BOSHQARUVI MEXANIZMLARI

6-mavzu. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi omillari

Reja:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi asoslari
2. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida hamkorlik
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida zamonaviylik

Tayanch tushunchalar: *Ta’lim, boshlang‘ich, boshqaruv, mexanizm, omillar, asoslar, hamkorlik, zamonaviylik.*

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi asoslari. Mamlakatimizning innovasion rivojlanish sharoitida boshlang‘ich ta’limda sifat ko‘rsatkichlariga erishish dolzarb bo‘lib turibdi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi asoslarini aniq belgilab olish va ular bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ko‘nikmalarini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’lim boshvqaruvining eng asosiy omillarini quyidagilar tashkil etadi:

- a) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvgiga oid milliy pedagogik tajriba;
- b) demokratik tamoyillar;
- v) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi bo‘yicha xorijiy tajribalar.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid o‘ziga xos milliy pedagogik tajriba mavjud. Bu tajribaning eng asosiyalarini Ustoz vositasida boshqarish, metodik birlashmalar asosida boshqarish va pedagogik kengash asosida boshqarish tashkil qiladi. Ustoz asosida boshqarishda asosiy e’tibor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim va tarbiya olish jarayonini tashkil etish ishlariga qaratiladi. Metodik birlashma asoslida boshqarishda esa asosiy masala boshlang‘ich ta’lim jarayonini metodik va texnologik jihatdan ta’minlashdin iborat. Chunki metodik birlashma jamoaviy tarzda boshlang‘ich ta’lim muammolarini o‘rganib borish ishlarini amalga oshiradi. Umumiy o‘rtalik muktabalarining Pedagogik kengashlari esa boshlang‘ich ta’lim jarayonini majmui tarzda boshqaradi va asosiy e’tiborni boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha davlat

ta’lim standartlari hamda talablarning ijro etilishiga qaratadi. Shu ma’noda Ustoz vositasida boshqarish asoslarini o‘zlashtirish, metodik birlashma vositasida boshqarish vazifalarini o‘rganish va Pedagogik kengash vositasida boshqarish mexanizmlarini o‘zlashtirish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun zaruriyatdir. Chunki ular kelgusida boshlang‘ich ta’lim jarayoni boshqaruvida ana shu uch mexanizm faoliyatida ishtirot etadi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi omillaridan eng muhim demokratik tamoyillardir. Bunday tamoyillar jamoaviy boshqarish, taklif asosida boshqarish, tashqi faoliyat asosida boshqarish va muayyan muammoni hal qilish uchun guruhlar vositasida boshqarishdan iborat. Bu tamoyillarga asoslangan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi demokratik xususiyat kasb etadi. Aynan boshlang‘ich ta’lim jarayonida bola parvarlik va insonparvarlik qoidalariga rioya qilish mazkur ta’loim boshqaruvini eng muhim demokratik asoslaridan biri hisoblanadi. Ushbu masalalar oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan amaliy jihatdan o‘zlashtirilishi tavsiya etiladi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi bo‘yicha xorijiy tajribalar ham muhim omillardan biridir. Bu o‘rinda xorijiy tajribalarning quyidagi eng muhimlarini ta’kidlab o‘tish lozim: boshlang‘ich ta’lim jarayonini nodavlat ta’lim shaklida tashkil qilish; boshlang‘ich ta’lim jarayoniga nobyudjet mablag‘larni (homiylar mablag‘lari va grantlarni) jalb etish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining moddiy ta’minotini muntazam takomillashtirib borish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish jarayonini muayyan o‘quv fanlarini chuqurlashtirib o‘qitish bilan kuchaytirish va boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida raqamli texnologiyalarni keng qo’llash. Bunday tajribalarni o‘zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Chunki mamlakatimizda tadbirdorlikning rivojlanishi sababli kelgusida nodavlat boshlang‘ich ta’limning kuchayishi va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining maqomi yanada takomillashtirilishi kutilmoqda.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining bu muhim omillari ularni chuqurlashtirilgan holda o‘rganishni taqozo etadi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mustaqil ta’lim vositasida mazkur omillarni o‘rganishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida hamkorlik. Jamiyatimizning rivojlanib borish jarayonida boshlang‘ich ta’limni amalga oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli omillar tarkib topib bormoqda. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini amalga oshirishda hamkorlik omilidan ham oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday hamkorlikning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- a) oliy pedagogik ta’lim muassasalari bilan hamkorlik;
- b) tashqi boshqaruvchilar bilan hamkorlik;
- v) klaster asosidagi hamkorlik.

Oliy pedagogik ta’lim muassasalari bilan hamkorlik vositasida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki oliy pedagogik ta’lim muassasalarida boshqaruv asoslari bo‘yicha mutaxassislar faoliyat yuritishadi. Aynan mana shunday mutaxassislarining nazariy va metodik yordami asosida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini tashkil qilish muhimdir. Chunki umumiy o‘rta ta’lim maktablari oliy pedagogik ta’lim muassasalariga byuiriktirib qo‘ylganligini eslatib bo‘tish joiz. Shu ma’noda oliy pedagogik ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’lim va tarbiya jarayonini boshqarish asorslari bo‘yicha yangi metodik ishlanmalarni yaratish dolzab bo‘lib turibdi. Oliy pedagogik ta’lim muassasalarining umumta’lim maktablari bilan hamkorlikdagi asosiy vazifalardan biri mazkur ta’lim bosqichlarini metodik jihatdan ta’minlashdir. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida oliy pedagogik ta’lim muassasalari bilan hamkorlik metodik ta’minotga asoslanadi.

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida tashqi boshqaruvchilar bilan hamkorlik qilish ham tarkib topib bormoqda. Unga ko‘ra, muayyan boshlang‘ich ta’lim bosqichining muammolarini hal qilish uchun bir choraklik yoki bir o‘quv yili muddatiga mo‘ljallangan tashqi boshqaruvchi (menejer) taklif etiladi. Bunday mutaxassis boshlang‘ich ta’limning muammolarini hal qilish bilan belgilangan muddatda shug‘ullanadi. Misol uchun, bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yozgi ta’til davrida sog‘lomlashtirish muammosi mavjud. Mazkur muammoni hal qilish uchun yozgi ta’til davrida Kasaba uyushmasi vakilini tashqi boshqaruvchi sifatida taklif qilish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid muammolarni hal qilishda tashqi boshqaruvchi bilan hamkorlik imkoniyatlaridan

foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Chirchiq davlat pedagogika universitetining tashabbusi bilan mamlakatimizda innovasion pedagogik klaster tizimi tarkib topdi. Shu ma’noda klaster tizimiga asoslangan hamkorlik asosida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun ilmiy markazlar, umumta’lim o‘rta maktablari hamda maktab ta’limi boshqaruvi hodimlarining klaster vositasi asosidagi hamkorligi tashkil etiladi. Bunda ilmiy markazlar boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining optimal shakllarini ishlab chiqadi, umumta’lim maktablari boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini amalga oshiradi va maktab ta’lim bosharuvi xodimlari mazkur jarayonning monitoringini olib boradi. Buning natijasida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida inson omilining salbiy ta’siri susayadi va boshqaruvning samaradorligi ortadi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida hamkorlik omillari muhim ahamiyatga ega. Bunday hamkorlikning imkoniyatlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida zamonaviylik. Hozirgi zamon boshlang‘ich ta’lim jarayonida zamonaviylik omillariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda zamonaviylik deganda, yangicha yondashuvlar, muammoni yangicha xal etish va boshqaruv jarayonida tarkib t opayotgan yangiliklarni amaliyatga joriy etib borish nazarda tutiladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida zamonaviylikning quyidagi omillariga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) boshqaruv jarayoniga muntazam yangicha yondashuvlarga asoslanish;

b) osondon murakkabga tamoyili asosida boshqaruv usullarini yangilab borish;

v) boshqaruv jarayoniga tajribali shaxsning individual va yangicha vositalaridan foydalanish.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga muntazam yangicha yonda shuvlarni tadbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu borada ayniqsa, menejerlik boshqaruvi yangiliklaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki menejerlik boshqaruvi boshlang‘ich ta’limni moliyalashtirishning nobyudjet, ya’ni xomiylik mablag‘lari va grantlar shakllari asosida moliyalashtirishi bilan muhim o‘rin


tutadi. Buning natijasida boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga tashqi kuchlarning ta’siri sust bo‘ladi. Agar boshlang‘ich ta’lim jarayoni faqat byudjetlar asosida tiashkil etilsa bu menejment boshqaruvi hisoblanadi. Bordi-yu byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga boshlang‘ich ta’lim faoliyati moliyalashtirilsa, bu menejerlik boshqaruvi deb ataladi. Shu jihatdan menejerlik boshqaruvi nodavlat ta’lim muassasalarining boshlang‘ich ta’lim jarayonida tajribadan o‘tayotganligini eslatib o‘tish joiz. Aynan menejerlik boshqaruvi bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga zamonaviylikning negiz omili hisoblanadi.

Mamlakatimizning hozirgi rivojlanish jarayonida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi usullariga ham zamonaviylik omilidan kelib chiqib yondashish dolzARB bo‘lib turibdi. Chunki boshqaruv usullari boshqaruv usullari an’anaviy va innovasion guruhlarga bo‘linishi bilan kutilgan samarani beradi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida innovasion guruhgA kiruvchi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday usullarning asosiyлari axborot-kommunikasion o‘quv texnik vositalari imkoniyatlariga tayangan usullar, raqamlashtirish texnologiyalari va insonning salbiy ta’sir omilini susaytirib borish usullaridan iborat. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida menejmentning mazkur yangi usullarini keng joriy etish va ularni oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan o‘zlashtirilishi muhim ahamiyatga egadir.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida ishtirok etayotgan o‘qituvchilar, maktab jamoasi va hududlardagi met odistlar orasidan muntazam yangilanib boruvchi boshqaruv tajribasiga ega ustozlar mavjud. Bunday ustozlarning tajribasidan kelib chiqib, asosiy e’tiborni individual usullarga qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu jihatdan Menejment o‘quv fanining kollegiyalik, hamkorlik va birdamlik usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu usullar boshlang‘ich ta’lim jarayoniga individual yondashuvlarni tadbiq etish imkonini beradi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim jarayonida boshqaruvni tashkil etishda muntazam zamonaviy omillarga tayanib borish muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli mazkur masala bo‘yicha metodik ishlanmalarini yaratish dolzARB bo‘lib turibdi.

Shunday qilib boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining o‘ziga xos omillari mavjud. Mazkur omillarni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan o‘zlashtirilishi muhim ahamiyatga egadir. E’tibor bering:



6-rasm. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining asosiy omillari

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi asoslari deganda nimani tushunasiz?
2. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida hamkorlik omillarini nimalar tashkil qiladi?
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida zamonaviylik asoslari nimalardan iborat?
4. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida hamkorlik va zamonaviylik omillarini konsept kiling va o‘zlashtiring.

7-MAVZU. BOSHLANG‘ICH TA’LIM BOSHQARUVINING XORIJIY AN’ANALARI

Reja:

1. Rivojlangan davlatlarda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi
2. Xalqaro ta’lim dasturlarida boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid tavsiyalar
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining xorijiy an’analardidan foydalanish

Tayanch tushunchalar: *Ta’lim, tajriba, an’ana, xorijiy, boshqaruv, bilim, ko’nikma, malaka.*

Rivojlangan davlatlarda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi.

Bugungi kunda dunyoda iqtisodiy o‘zini ta’minlay oladigan va o‘z mamlakatlarga moliyaviy-texnologik yordam ko‘rsata oladigan davlatlar rivojlangan davlatlar tushunchasi bilan yuritiladi. Shu jihatdan rivojlangan davlatlar quyidagi mintaqalarda mavjud:

- a) Yevropa mintaqasida;
- b) Amerika mintaqasida;
- v) Osiyo mintaqasida.

Yevropa mintaqasida Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Italiya rivojlangan davlatlar sifatida e’tirof etilgan. Shu ma’noda mazkur davlatlarning boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi bo‘yicha tushunchaga ega bo‘lish muhim hisoblanadi. Germaniyada boshlang‘ich ta’lim tashqi boshqaruvchi menejerlar vositasida amalga oshiriladi va olity pedagogik ta’lim jarayonida o‘qituvchi-menejer mutaxassislarini tayyorlashga alohida e’tibor qaratiladi. Buyuk Britaniya umumiy o‘rta ta’lim maktablarida boshlang‘ich ta’limni boshqarish bevosita ilmiy markazlar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda ilmiy markazlar davlat va nodavlat boshlang‘ich ta’lim muassasalarini boshqarishning nazriy-metodik ishlanmalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi va asosiy e’tibor bunday ishlanmalarining loyiha tarzida bo‘lishiga qaratiladi. Natijada Buyuk Britaniyaning boshlang‘ich ta’lim bosqichi bo‘yicha boshqaruvi ilmiy asoslanganligi bilan dunyo mamlakatlarida keng e’tirof etilgan. Fransiya umumiy o‘rta ta’lim muassasalari boshlang‘ich

ta’lim bosqichi metodik kengash tomonidan am alga oshirilgan. Bunday kengash tavsiyaviy xarakterdagi taqdimnomalarini beradi va maxsus menejer shunday tavsiyalar asosida boshlang‘ich ta’lim jarayonini boshqaradi. Italiyada o’tgan asrning 90-yillaridan boshlab boshlang‘ich ta’lim jarayoni, umuman ta’lim tizimini boshqarish kompyuterli texnologiyalar asosida faqat Xukumat t omonidan amalga oshirib kelinmoqda. Bunda Xukumat asosiy yo‘nalishlarni taqdim etadi va u taqdimnomalar asosida boshlang‘ich ta’limni spicher (maxsus boshqaruvchi) amalga oshiradi. Italiyaning mazkur tajribasi keyingi paytlarda rivojlangan davlatlarda keng qo‘llanilayotganligini eslatib o‘tish joiz.

Amerika mintaqasida AQSH, Kanada va Braziliya rivojlangan davlatlar sifatida e’tirof etilgan. Shu jihatdan AQSHda boshlang‘ich ta’lim jarayoni maxsus sertifikatga ega bo‘lgan menejer tomonidan amalga oshiriladi va uning asosiy vazifasi boshlang‘ich ta’lim jarayonini munosib darajada moliyalashtirishdan iborat. Mazkur menejer o‘quv yilining yakunida AQSH kongrasida yillik hisobotni taqdim etadi. Kanadada ham boshlang‘ich ta’lim jarayoni aynan AQSH tizimi asoslanganligini eslatib o‘tish joiz. Faqat bunda Kanada xalqining urf-odatlaridan boshqaruv jarayonida foydalanishga ham e’tibor qaratiladi. Misol uchun, boshldang‘ich ta’lim o‘quvchilarini uchun har chorakda Kanada xalqining qadriyatiga asosan karnaval tashkil etiladi va bundan maqsad boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimdonlik darajasini tabiiy talablar asosida oshirib borishdan iborat. Braziliyada boshldang‘ich ta’lim jarayoni bevosita Parlament tomonidan amalga oshiriladi. Unga ko‘ra, Parlament yuzdan ortiq qabilaga ega Braziliya xalqining har biri uchun boshlang‘ich ta’lim jarayonini tashkil etish choralarini amalga oshiradi va asosiy e’tiborni qabul qilinayotgan me’yoriy hujjalarning ijrosiga qaratiladi. Buning natijasida Braziliya boshlang‘ich ta’lim jarayoni rang-barang va xilma-xil shakllarga ega bo‘lib borayotganligini eslatib o‘tish joiz.

Osiyo mintaqasida Yaponiya va Gongkong rivojlangan davlatlar hisoblanadi. Shu jihatdan Yaponiyada boshlang‘ich ta’lim jarayoni kamida 50 yoshdan yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda konfutsi ta’limotiga asoslanadi va Konfusi ta’limotining mazmuniga ko‘ra, 50 yogshdan yuqori o‘qituvchi qalbida bolapvarvarlik tuyg‘usi qayta uyg‘onadi. Shu jihatdan

Yaponiyadagi nodavlat boshlang‘ich ta’lim muassasalarini ham ana shunday oqsoqol o‘qituvchilar tomonidan boshqariladi. Bizningcha, bu tajribani o‘rganib ko‘rish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Gongkong davlatida boshlang‘ich ta’limni boshqarish keyingi paytlarda Buyuk Britaniya boshqaruvin texnologiyalariga asoslanilmoqda. Unga ko‘ra, ilmiylikka asoslangan texnologiyalarni joriy etish va boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini xalqaro ta’lim standartlariga mos savodxon qilishga diqqat qilinadi. Buning natijasida umuman Gongkong ta’lim tizimi texnologiyalashib borayotganligini eslatib o‘tish joiz.

E’tibor berilsa, rivojlangan davlatlarda boshlang‘ich ta’limni boshqarishda xalqning milliy qadriyatlariga asoslanish va yangicha texnologiyalarga tayanishga asosiy e’tibor qaratiladi.

Xalqaro ta’lim dasturlarida boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid tavsiyalar. Bugungi kunda mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim jarayoniga xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etish amaliyoti amalga oshirilmoqda. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi 997-son qarori asos bo‘lmoqda. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida xalqaro ta’lim dasturlarining tavsiyalaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur qarorda belgilanganidek, quyidagi xalqaro ta’lim dasturlari tavsiyalaridan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida foydalanish muhim ahamiyatga ega.

- a) PIRLS tavsiyalari;
- b) TIMSS tavsiyalari;
- v) TALIS tavsiyalari;

PIRLS xalqaro dasturi boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholashga yo‘naltirilgan. Shu jihatdan mazkur xalqaro dasturning boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida tavsiyalaridan foydalanish uchun aynan o‘quvchilarning savodxonlik djarajasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish mavqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda har bir boshlang‘itch sinf o‘quvchisi o‘qituvchilarga biriktirilishi, ularning matnni ravon, tezkor va qulay o‘qishi uchun sharoitlar yaratilishi hamda o‘qiganlarini tushunish ko‘nikmalarini tarkib toptirishga yo‘naltirilgan boshqaruv amalga oshiriladi. Shu jihatdan mazkur dastur asosida boshlang‘ich ta’limda boshqaruvin tashkil etilganida asosiy e’tibor o‘quvchilar uchun ta’lim muhitini yuksak darajada tarkib toptirishga qaratiladi.

TIMSS xalqaro dasturi 4 va 8-sinf o‘quvchilarining Matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish jarayonini baholab borishga yo‘naltirilgan. Shu ma’noda mazkur dasturning tavsiyalaridan boshlang‘ich ta’limni boshqarishda foydalanish ham ushbu ta’lim bosqichini rivojlantirishga xizmat qiladi. Unda 4-sinf o‘quvchilarining Matematika va tabiiy yo‘nalishdagi o‘quv fanlarini kutilgan darajada o‘zlashtirish uchun sharoitlar yaratish, ushbu fanlar bo‘yicha xalqaro dasturlardan foydalanish imkoniyatlarini tarkib toptirish va bu boradagi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini mutnazam monitoring qilib borish asosida boshqaruvali amalga oshiriladi. Buning natijasida 4-sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasini yuksaltirishga erishiladi va ularning kelgusida 8-sinfda shu dastur asosida yana qaytadan baholash tadqiqotida faol ishtirot etishi uchun zamin hozirlanadi. Bunday tavsiyalarni o‘zlashtirish muhim amaliy ahamiyatga egadir.

TALIS xalqaro dasturi umumta’lim maktabrahbari va o‘qituvchilarining o‘qitish va ta’lim muhitini hamda o‘qituvchilarining ish sharoitini o‘rganish hamda baholashga asoslanadi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida mazkur dasturning o‘qitish jarayonini o‘rganib borish, yuksak darajada ta’lim muhitini yaratish va o‘qituvchilarining faol faoliyat ko‘rsatishi uchun sharoitlar yaratib borish tavsiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki bu uch masala boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvigiga xalqaro ta’lim dasturlarining tavsiyalaridan ham foydalanish muhim amaliy imkoniyatlarni beradi. Buning natijasida boshlang‘ich ta’limni xalqaror an’analardan boshqarish tarkib topadi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruving xorijiy an’analardan foydalanish. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida xorijiy an’analardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Bunday an’analarning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- boshlang‘ich ta’limni moliyaviy boshqarish an’anasi;
- boshlang‘ich ta’limni analitik boshqarish an’anasi;
- v) boshlang‘ich ta’limni hududiy boshqarish an’anasi.


Boshlang‘ich ta’limni boshqarishning xorijiy an’analarda mavjud sharoitlardan kelib chiqgan holda yondashuvlar mavjud.

Shunday yondashuvlardan biri boshlang‘ich ta’limni moldiyaviy boshqarisho‘ an’anasidir. Unga ko‘ra, boshlang‘ich ta’limni tashkil etish va uni amalga osho‘irish jarayonida moliyaviy ta’mnotin to‘liq ta’minlaydigan iqtisodiy manbalarga asosiy e’tibor qaratiladi. Moliyaviy ta’mnotin mustaqvil bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim bosqichi boshqaruvi har qanday davlat yoki nodavlat boshqaruvi muassasalaridan xoli tarzda am alga oshiriladi. Bundan asosiy maqsad xorijiy mamlakatlardan boshlang‘ich ta’lim jarayoni bilan barcha bolalarni qamrab olishdir. Chunki bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda fuqarolarning ijtimoiy toifada bo‘linishi mavjud bo‘lib, ba’zi fuqarolar pullik asosda amalga oshiriladigan boshlang‘ich ta’lim uchun imkoniyatga ega emas. Shu sababli AQSH, Kanada va Buyuk Britaniya mamlakatlarida boshlang‘ich ta’lim bilan barcha bolalarni qamrab olish uchun mazkur ta’lim bosqichini moliyaviy boshqarish an’anasi birlamchi hisoblanadi.

O’tgan 90-yillaridan boshlab g‘arbiy Yevropa mamlakatlari Germaniya, Fransiya, Irlandiya va Finlandiyada boshlang‘ich ta’limni analitik boshqarish an’anasi tarkib topdi. Unga ko‘ra, davlat boshlang‘ich ta’lim jarayonini tashkil etish uchun barcha sharoitlarni yaratadi va shu sharoitlarning natijasi asosida boshlang‘ich ta’lim samaradorligini talab qiladi. Bunda maxsus boshqaruvchilar boshlang‘ich ta’lim standartlari va talablarini ishlab chiqib, shular asosida ta’limning mazkur bosqichini boshqaradi. Bunday boshqaruv analitik, ya’ni faqat ta’lim jarayonini boshqarish an’anasi deb ataladi. Shu jihatdan bu tajribaga ko‘ra, davlat tashkilotchi vazifasini bajaradi va maxsus boshqaruvchi esa boshlang‘ich ta’limni amalga oshirishga oid barcha jarayonni boshqaradi. Bunda davlat va fuqarolar o‘rtasida ijtimoiy hamkorlik tamoyiliga asoslaniladi. Unda davlat bolalarning boshlang‘ich ta’lim bilan qamrab olinishidan manfaatdor, shu sababli sharoit yaratadi va fuqarolar boshlang‘ich ta’lim bilan ta’minlangan bolalarni kelgusida ixtiyoriy ravishda ta’lim turlariga yo‘naltirish huquqidан foydalilaniladi. Analitik boshqaruvning bu shakli boshlang‘ich ta’lim masalasida fuqarolar va davlat o‘rtasida ijtimoiy muvozanatni saqlab turishga asoslanadi.

Boshlang‘ich ta’limning xorijiy an’analalaridan biri hududiy boshqarishdir. Unga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim bosqichi markazlarshgan tarzda boshqarilmaydi va aksincha, hududlar kesimida amalga

oshiriladi. Bunda davlat faqat ta'lim standartlari nuqtai nazaridan muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi. Davlat va nodavlat shakllaridagi boshlang'ich ta'lim bosqichini hududiy boshqarishning xorijiy an'anasida mazkur ta'lim bosqichining ijtimoiy buyurtmalardan xoli ekanligiga asoslaniladi. Bunday boshqaru vshakli Shvedsariya, Shvedsiya va Ispaniyada tarkib topgan. Shu sababli oliv pedagogik ta'lim jarayonida hududiy ta'lim muassasalari boshqaruvi bilan shug'ullanadigan maxsus menejerlarni tayyorlashga asosiy e'tibor qaratiladi. Hududiy boshvqaruv an'anasining eng yaxshi jihatlaridan biri boshlang'ich ta'lim bosqichiga mazkur ta'limning vazifasiga kirmaydigan masalalarning yuklanmaslidir. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilari va boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z imkoniyatlaridan kelib chiqgan holda yilning o'zlariga qulay vaqtlarida boshlang'ich ta'lim jarayonini amalga oshiradi. Bunday an'analarni o'rganib ko'rish ham boshlang'ich ta'lim asoslari bo'yicha kasbiy kompetensiyaning kengayishiga xizmat qilishini eslatib o'tish joiz.



7-rasm. Boshlang'ich ta'lim boshqaruvining xorijiy an'analari mazmuni

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining xorijiy an’analarda o‘zlashtirish mumkin bo‘lgan tajribaviy xususiyatlar ham mayjud. Mazkur an’analarni ilmiy jihatdan o‘rganib hulosalarga kelish dolzarb bo‘lib turibdi.

Shunday qilib boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining xorijiy ana’alari yangicha yondashuvlarga egaligi va ta’lim tizimi boshqaruvida kasbiy-menejerlik kompetensiyasini kengaytirib borishda muhim imkoniyatlari beruvchi omillardan biridir. Mazkur masalalarni nazariy-metodik jihatdan o‘rganish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun maqsadga muvofiq bo‘ladi. E’tibor bering:

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Rivojlangan davlatlarda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi qanday amalga oshiriladi?
2. Xalqaro ta’lim dasturlarida boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid tavsiyalar deganda nimalarni tushunasiz?
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining xorijiy an’analardan foydalanish qanday amalga oshiriladi?
4. Xalqaro ta’lim dasturlarida boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid ifodalangan tavsiyalarni o‘zlashtiring va ularni haftalik pedagogik amaliyot davrida sinovdan o‘tkazing.

8-MAVZU. BOSHLANG‘ICH TA’LIM BOSHQARUVINING INNOVASION TEXNOLOGIYALARI

Reja:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida innovasion yondashuvlar.
2. Boshlang‘ich ta’limning jamoaviy boshqaruvi
3. Boshlang‘ich ta’limning tashqi boshqaruvi

Tayanch tushunchalar: Innovasiya, texnologiya, boshqaruv, ta’lim, boshlang‘ich, sifat, bilim, ko’nikma, malaka.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida innovasion yondashuvlar. “Innovasiya” atamasi inglizcha bo‘lib, “kiritilgan yangilik, ixtiro” ma’nolarini anglatadi, atamasi sifatida esa yangilanishni, o‘zgarishni amalga joriy etishni va yangicha yondashuvli faoliyatni bildiradi.⁷ Shu ma’noda muayyan texnologiyaga innovasion yondashuv deganda ilmiy texnika yutuqlari, ilg‘or tajribalar, texnologiyalar va mehnatni tashkil etish sohalaridagi yangiliklarga asoslangan fikr-mulohazalar majmui nazarda tutiladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida innovasion yondashuvlarni joriy etish uchun bir necha jihatlarga e’tibor qaratish lozimdir. Ularning asosiyлари quyidagilardan iborat:

- a) boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid innovasion loyihalarni shakllantirish;
- b) boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid eksperimental maydonchalar tashkil etish;
- v) boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid yangi ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid innovasion loyihalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bunda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini takomillashtiruvchi g‘oyalar asosida muayyan loyihalar ishlab chiqiladi va ular sinovdan o‘tkaziladi. Misol uchun, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida jamoatchilikning ishtiropi

⁷ Ҳасанбоев Ж. ва бошқ. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Тошкент, 2009. 177-бет.

mazmunida loyiha ishlab chiqilishi mumkin. Loyihada boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida jamoatchilik vakillarining tavsifi, ularning boshqaruvdagi vakolatlari, ovoz berish huquqi va boshlang‘ich ta’lim muammolarini hal etishdagi ishtiroki masalalari aniq belgilab qo‘yiladi. Buning natijasida o‘ziga xos innovation loyiha ega bo‘linadi. Aynan yangilikka asoslangan boshqaruv loyihalari o‘ziga xos imkoniyatlarga ega bo‘lib, ular boshlang‘ich ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tezkor va qulay shakllarda hal etish yo‘nalishlarini belgilab beradi. Shu sababli bunday loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmasip bilan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini qurollantirish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda keyingi paytlarda boshlang‘ich ta’lim jarayonini amalga oshirish uchun eksperimental, ya’ni tajriba-sinov maydonchalarini tashkil etish an’analari tarkib topdi. Bunday ekspekrimental loyihalar boshlang‘ich ta’lim jarayoniga joriy etilishi o‘ziga xos innovation yondashuvga asos bo‘ladi. Misol uchun, boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga tashqi boshqaruvchini jalb etish loyihasi ishlab chiqilib, u muayyan hududlar kesimida tajriba-sinovdan o‘tkaziladi. Innovation loyiha belgilangan va o‘z samarasini bergen vazifalar tajriba-sinovdan o‘tsa, amaliyatga tadbiq etish tavsiyasi taqdim etiladi. Ayni paytda, loyihaning muayan masalalari tajriba-sinov jarayonida kutilgan samarani bermasligi mumkin. Shunda loyihaning ana shu jihatlari qayta ishlanadi va kelgusida takroran loyiha to‘liq holatda tajriba-sinovdan o‘tkaziladi. Bunday eksperimental maydonchalar boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligi bo‘zyicha yangilika asoslangan loyihalar majmularini taqdim etib borishi bilan muhim ahamiyatga ega. Shu ma’noda bizning yondashuvimizga ko‘ra, oliv pedagogik ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan “Talabalardak akademiyasi” ishtirkochilarini boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga loyihalari bo‘yicha eksperimental maydonchalar tashkil etish va unda o‘zlarining individual loyihalarini tajriba-sinovdan o‘tkazishga jalb qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu bilan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid innovation boshqaruvlari ko‘nikmasi amalidagi jihatdan kuchaytiriladi.

Boshlang‘ich ta’lim bosharuviga oid yangi tadbiqot ishlarini amalga oshirib borish ham innovation yondashuvning negizlaridan

birini tashkil etadi. Unga ko‘ra, boshlang‘ich ta’limning muayyan muammosi bo‘yicha talabalarning individual va guruhli ilmiy ishlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ilmiy ishlanmalaridan foydalanish bo‘yicha o‘ziga xos tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda talabalar o‘zlarining yangilikka asoslangan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvishga oid ilmiy ishlanmalarini, ixtiolarini yoki taqdimotlarini muhokama uchun taqdim etadi. Ular talabalar ishtirokida va professor-o‘qituvchilar rahbarligida muhokamadan o‘tkazilib, taqdim etilgan ilmiy ishlanmalarining yangilik xususiyatlari yuqori bo‘lgan turlarini aniqlab, ulardan foydalanish uchun jamoaviy tavsiya ishlab chiqiladi. Bunday jarayon bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining boshlang‘ich ta’lim boshvqaruvi madaniyati ko‘nikmasini yanada kuchaytirishda muhim o‘rin tutadi. Shu ma’noda masalan, bu borada Chirchiq davlat pedagogika universitetining “Kelajak o‘qituvchisi-ilmiy tadqiqot laboratoriysi” imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida oid innovation yondashuvlar bo‘yicha ko‘nikmalarni egallashda ana shu masalalarga diqqat qilish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich ta’limning jamoaviy boshqaruvi. Boshlang‘ich ta’limning jamoaviy boshqaruvi asosan ta’lim oluvchilar, ta’lim beruvchilar va boshlang‘ich ta’limdan birldamchi manfaatdorlar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda quyidagilarga e’tibor berish muhim ahamiyatga ega:

a) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida o‘quvchilar imkoniyatlaridan foydalanish;

b) boshlang‘ich ta’lim boshqaruving asosi sifatida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyatini belgilash;

v) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida mazkur ta’lim bosqichidan birldamchi manfaatdor bo‘lgan ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning ishtirokidan foydalanish.

Boshlang‘ich ta’limning jamoaviy boshqaruv asoslardan biri innovausion xususiyatga ega bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mazkur masalada imkoniyatlaridan foysdalanishdir. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim va tarbiya jarayoni,

ularga o‘qituvchilarning munosabatlari, o‘quvchilarning o‘z otonalariga munosabatlari va maktab jamoasining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga nisbatan munosabatlari masalalari muntazam o‘rganib boriladi. Bu o‘rganish jarayoni sinf rahbarlari tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim jarayonini tashkil etish, tarbiya jarayonining amalga oshirilishi yoki o‘zgalarning ularga munosabati masalalarida aniq fikrlarni bildira oladi. Bunga sabab har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisining o‘zining diqqat markazida bo‘lishiga intilishidir. Shu sababli tajribali sinf rahbarlarining ko‘p yillik faoliyati shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlarini muntazam o‘rganib borish mazkur ta’lim bosqichida jamoaviy boshqaruvni tashkil etish uchun keng ma’lumotlar va imkoniyatlarni beradi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining jamoaviy asoslardan biri unda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyatini belgilab qo‘yishdir. Bunda har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z o‘quv fani va umumiyligi arbiya masalalari bo‘yicha individual fikrlariga ega bo‘lishi, mazkur fikrlarni muntazam ravishda boshlang‘ich ta’lim metodik kengashida bildirib borishi muhim ahamiyaga ega hisoblanadi. Shu sababli tajribali sinf rahbarlari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faol faoliyatlaridan ko‘p hollarda boshlang‘ich ta’lim jarayonini boshqarishda unumli foydalanib kelmoqda. Misol uchun, o‘zlashtirishda muammo bo‘lgan o‘quvchi ko‘proq u ishonadigan va erkin munosabatda bo‘ladigan o‘qituvchiga biriktiriladi. O‘qituvchi belgilangan muddat jarayonida o‘quvchi bilan ishlaydi va uning natijasida o‘quvchining o‘zlashtirish jarayoni tubdan o‘zgaradi. Bunday yondashuv boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyatidan mazkur ta’lim bosqichi jamoaviy boshqaruvini tashkil etishda foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Sinf rahbarlari aynan mana shu masalada ham yo‘naltiruvchi vazifasini bajarishi taqozo etiladi. Biz tajribamizda ko‘rgan edikki, Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari qanchalik faol bo‘lsa, boshlang‘ich ta’lim jarayoni boshqaruvi shunchalik samarali hisoblanadi.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim jarayoniga mazkur ta’lim bosqichining dastlabki manfaatdorlari bo‘lgan ota-onalarni keng jalg etish jarayoni tarkib topib bormoqda. Buning uchun otonalarning yoki ularni o‘rnini bosuvchi shaxslarning mavjud

imkoniyatlaridan boshlang‘ich ta’lim jarayonini rivojlantirishda foydalaniladi. Misol uchun, muayyan ota-onalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilar uchun eng zamonaviy kompyuterga asoslangan sinfxonalarni jihozlash imkoniyatlariga ega. Bu ishni amalgalashirish uchun sinf rahbari tashabbusi bilan mакtab Pedagogik kengashi qaror qabul qiladi. Shundan keyin ota-onalar guruhi belgilangan boshlang‘ich sinf xonalarini kompyuterlar bilan jihozlaydi. Buning natijasida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining texnologik imkoniyatlari yanada kengayadi va natijada boshlang‘ich ta’limning kutilgan samaradorligiga erishish yo‘llari tarkib topadi. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida ona-onalarning ishtiroki muammosini nazariy-metodik jihatdan tadqiq etish va bu borada innovasion xususiyatlarga ega tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’limning jamoaviy boshqaruvida o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalarning imkoniyatlaridan foydalanish hamda bu borada sinf rahbarlarining tashabbuskor va muvoifiqlashtirish vazifasini bajarishi muhim ahamiyatga egadir. Bunday jamoaviy boshqaruv o‘zida imkoniyatlardan samaraga tamoyilini mujassam etadi.

Boshlang‘ich ta’limning tashqi boshqaruvi. Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabrdagi PF-269-son “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalgalashirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlari dasturi” tasdiqlanib, ijrosi ta’minlanmoqda. Shu jihatdan mazkur dasturda sohalar bo‘yicha tashqi boshqaruvchi kadrlarning imkonichiyatlaridan foydalanish ham belgilangan. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida tashqi boshqaruvchidan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u mazkur ta’lim bosqichini innovasion talablar asosida rivojlantirish imkoniyatlarini beradi. Boshlang‘ich ta’limning tashqi boshqaruvida quyidagilarga e’tibor berish muhim hisoblanadi:

- a) tashqi boshqaruvchining to‘g‘ri tanlanishi;
- b) tashqi boshqaruvchining vakolatlari aniq belgilab qo‘yilishi;
- v) tashqi boshqaruvchining faoliyat muddati tarkib toptirilishi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida tashqi boshqaruvchini to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun imkonqadar pedagogik

menejment yoki pedagogik menejerlik ko‘nikmalariga ega bo‘lgan boshqaruvchilarni tanlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki boshlang‘ich ta’lim jarayoni eng avvalo pedagogik qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Tashqi boshqaruvchi o‘z faoliyati davomida pedagogik va menejment qonuniyatlariga uyg‘un amal qilishi taqozo etiladi. Bunda asosiy e’tibor tanlov asosida tashqi boshqaruvchini tanlashga qfartilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Eslatib o‘tish joizki, tashqi boshqaruvchi boshlang‘ich ta’limning muayyan muammosini xal etish uchun taklif etiladi va u doimiy faoliyatda bo‘lmaydi.


Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida tashqi boshqaruvchining vakolatlari aniq belgilab qo‘yilishi kerak. Misol uchun, tashqi boshqaruvchi boshlang‘ich ta’limni tashkil etish muammolarini hal etish, mazkur ta’lim bosqichini moliyaviy ta’minalash masalalarni hal etish yoki boshlang‘ich ta’limga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muammolarni xal etish uchun taklif etiladi hamda uning bu boradagi vakolatlari belgilab qo‘yiladi. Bizning kuzatishimizga ko‘ra, bugungi kunda mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayonini muntazam ravishda zamonaviy o‘quv-texnik va axborot-kommunikasjon vositalar bilan ta’minlab borish taqozo etilmoqda. Shu jihatdan bu muammoni asosli hal etish va uning samaradorligini ta’minalash uchun tashqi boshqaruvchi taklif etiladi. Tashqi boshqaruvchi maktab Pedagogik jamoasining qarori bilan muayyan muddatda vakolatli shaxs sifatida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini amalga oshiradi. Eslatib o‘tish joizki, tashqi boshqaruvchi o‘z vakolatini yakkaboshchilik asosida amalga oshiradi va shu sababli uning faoliyati boshlang‘ich ta’limning muayyan muammosini ijobjiy xal etishda ta’sir kuchiga ega bo‘ladi.

Xorijiy mamlakatlarning tajribasiga ko‘ra, ta’lim muassalariga tashqi boshqaruvchilar aniq muddatlar asosida taklif etiladi. Shu jihatdan bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga jalb etiladigan tashqi boshqaruvchilar choraklik yoki bir o‘quv yildi muddatida faoldiyat yuritishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ularning asosiy vazifasi kelishib olingan boshlang‘ich ta’lim muammosini xal etishdan iborat hisoblanadi. Belgilangan muddat davomida tashqi boshqaruvchi ana shunday muammoni xal etadi va faoliyati so‘nggida uning samaradorligi bo‘yicha hisobot taqdim etadi. Shuni ta’kidlash lozimki, tashqi boshqaruvchi o‘z boshqaruv

faoliyatida moliyaviy mustavqil bo‘lganligi uchun u tomonidan xal etiladigan boshlang‘ich ta’lim muammosi tezkor ravishda o‘z yechimini topadi. Shu sababli masalan, Rossiya Federasiyasi kengi 5 yil davomida boshlang‘ich ta’lim bosqichi, umuman, ta’lim tizimi muammolarini xal etishda tashqi boshqaruvchining imkoniyatlaridan oqilona foydalanib kelinmoqda. Bunday tajribalarni xam o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida tashqi boshqaruvchi imkoniyatlaridan foydalanish ham o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu bilan mazkur ta’lim bosqichiga innovausion texnologiyalanni joriy etib borish faoliyati kuchayadi.

Shunday qilib boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining innovasion texnologiyalari innovasion yondashuvlarni aniq belgilab olish, jamoaviy boshqaruvni tashkil etish va tashqi boshqaruv imkoniyatlidan foydalanish bilan belgilanadi. Bundagi yangilik shundan iboratki, boshlang‘ich ta’limning muayyan muamosini tezkor va qisqa muddatda xal qilishga erishiladi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining boshlang‘ich ta’lim boshqarubi innovasion texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini tarkib toptirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. E’tibor bering:



8-rasm. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining zamionaviy innoasion texnologiyalari

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida innovasion yondashuvlar deganda nimalarni tushunasiz?
2. Boshlang‘ich ta’limning jamoaviy boshqaruvi asoslari nimalardan iborat?
3. Boshlang‘ich ta’limning tashqi boshqaruvi omillarini nimalar tashkil qiladi?
4. Boshlang‘ich ta’limning tashqi boshqaruvi asoslarini o‘zlashtiring va kospekt qiling.

9-MAVZU. BOSHLANG‘ICH TA’LIM BOSHQARUVINING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI

Reja:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ilmiy istiqbolli yo‘nalishi
2. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining pragmatik istiqbolli yo‘nalishi
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining rejali istiqbolli yo‘nalishi.

Tayanch tushunchalar: *Boshqaruv, ta’lim, boshlang‘ich, istiqbol, pragmatik, reja, bilim, ko‘nikma, malaka.*

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ilmiy istiqbolli yo‘nalishi.

Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi zamonaviy talablar asosida va yangicha yondashuvlarga binoan yangidan tarkib topib bormoqda. Shu sababli oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining eng muhim istiqbolli yo‘nalishlari bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ana shunday istiqbolli yo‘nalishlardan biri ilmiylikdir. Unga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ilmiy istiqbolli rivojlanishi bu jarayonni nazariy, metodik va texnologik jihatdan rivojlantirib borish omili hisoblanadi. Ilmiy istiqbolli yo‘nalishning negizlarini quyitdagilar tashkil etadi:

- a) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi muammolari bo‘yicha ilmiy izlanishlarni yo‘lga qo‘yish;
- b) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi muammolari bo‘yicha ilmiy muammolarni tadqiq etish;
- v) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi bo‘yicha innovation ilmiy ishlanmalarini yaratish.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi muammolari bo‘yicha ilmiy izlanishlarni yo‘lg qo‘yish muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun iqtidorli va layoqatli talabalarni boshlang‘ich ta’lim muammolari ilmiy izlanishlariga jalb etish, ularni ilmiy izlanishlar asoslari bilan tanishtirish va ularda ilmiy tadqiqotchilik ko‘nikmalarini tarkib toptirish muhim o‘rin tutadi. Misol uchun, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid ilmiy izlanishlar asoslari bilan tanishtirish muhim aham iyatga egadir.

Ilmiy izlanish asoslarini eng muhimlarini o‘zining qiziqish doirasida nisbatan tajribaga ega ustoz tanlash, ustoz yordamida tegishli adabiyotlar bilan tanishish, ilmiy atamalarni o‘zlashtirish va o‘z fikrlarini ilmiy shaklda bayon qila olish ko‘nikmalaridan iborat. Shuni eslatib o‘tish joizki, bu ko‘nikmalar tadrijiy ravishda eng kamida bir yil davomida tarkib topadi. Shu sababli ilmiy izlanishlar asoslarini o‘rganish ishida qunt bilan xarakat qilish va murakkablikdan cho‘chimaslik muhim ahamiyatga ega. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mutaxassislik va tanlov fanlari vositasida ham muayyan darajada ilmiy izlanish asoslari bilan tanishadi. Bu borada ayniqsa, magistratura bosqichida ilmiy izlanish asoslari bilan keng tanishish imkoniyati mavjud ekanligin6i eslatib o‘tish joiz.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ilmiy ishlanish yo‘nalishi yo‘lga qo‘yilgach, navbat mazkur boshqaruvning eng asosiy muammolari bo‘yicha muammolarni aniqlab olishga keladi. Boshlang‘ich ta’lim boshvqaruvida ilmiy muammoni to‘g‘ri qo‘yish, ilmiy izlanish jarayoniga kirishayotgan talaba uchun muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli tajribali professor-o‘qituvchilar o‘z kompetensiyalari doirasida boshlang‘ich ta’limning muayyan muammolari bo‘yicha mavzular ko‘lamini belgilab boradi. Bunda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi bo‘yicha eng zaruriy muammo aniqlab olingach, shu muammoni tadqiq etish uchun mavzu belgilanishiga asosiy e’tibor qaratiladi. Bizning kuzatishimizga ko‘ra, bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida menejerlar tayyorlash, boshqaruv jarayonini raqamlashtirish, boshqaruvning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish va boshqaruv jarayoniga jamoaviy yondashuvlarni keng tadbiq etish kabi masalalar muhim muammolardan hisoblanadi. Ana shunday muammolar tarkibidan talabalarning layoqati va qiziqishlaridan kelib chiqib, eng muhimi tanlanadi hamda uni tadqiq etish uchun mavzu belgilanadi. Misol uchun, bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlash muammosi aniq, mazkur muammoni tadqiq etish uchun quyidagicha bir necha mavzular belgilanishi mumkin: boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlashning nazariy asoslari; boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlashning metodologik omillari; boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlashning me’yoriy asoslari va h.k. Mana

shunday yondashuv asosida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining eng dolzarb muammolarini tadqiq etish jarayoniga kirishiladi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi bo‘yicha izlanish yo‘lga qo‘yilib, tadqiq etilishi lozim bo‘lgan ilmiy muammo belgilab olingach shu muammoni tadqiq etib, uning ilmiy ishlanmasini yaratish bosqichi yuzaga keladi. Bugungi kunga qadar boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda aossiy e’tibor nazariy masalalar tahliliga qaratilgan bo‘lsa, keyingi uch yil davomida bu borada metodik va amaliy ishlanmalarni ishlab chiqish jarayoniga ustuvor darajada diqqpat qilinmoqda. Chunki bunday yondashuv muammoning nazariy ilmiy yechimini amaliyotda foydalanishga mo‘ljallangan ilmiy ishlanmaga aylantirish imkonini beradi. Misol uchun, ba’zi iqtidorli talabalarimiz tomonidan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini kompyuterli dastur asosida masofadan turib boshqarish ilmiy ishlanmasi ishlab chiqilishi mumkin. Bunday ilmiy ishlanma bugungi kunda nihoyati dolzarb bo‘lib, u moliyaviy va vaqt tejamkorligiga asoslanishi bilan ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilmoqda. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida zamonaviy ilmiy ishlanmalarni yaratish hozirgi zamon boshlang‘ich ta’lim menejerligining muhim muammolaridan biridir.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ilmiy istiqbolli yo‘nalishi asoslarini shu sohada ilmiy izlanishlarni tashkil etish, eng asosiy ilmiy muammolarni belgilab olish va muhim ilmiy ishlanmalar ratish tashkil etadi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining pragmatik istiqbolli yo‘nalishi. Mamlakatimizning boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining eng asosiy istiqbolli yo‘nalishlaridan biri pragmatik istiqbolli yo‘nalishdir. “Progrmatik” so‘zi yunoncha bo‘lib, bugungi kun, bugungi amaliyot va hozirgi muammo ma’nolarini anglatadi.⁸ Shu ma’noda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining pragmatik istiqbolli yo‘nalishlari deganda amaliyotga yo‘naltirilgan xatti-xarakatlar majmui nazarda tutiladi. Bu yo‘nalishning negizlari quyidagilardan iborat:

a) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida amaliy masalalar yechimiga

⁸ Қаранг: Р.Джураев ва бошқ. Педагогика фани изоҳли луғати. – Тошкент, 2008

e'tibor berish;

b) boshlang'ich ta'lim boshqaruvida amaliy samara beradigan tadbirlarni amalga oshirish;

v) boshlang'ich ta'lim boshqaruvida o'rinsiz muammoli yondashuvlarga asoslanmaslik.

Boshlang'ich ta'lim boshqaruvida programik istiqbolli yo'nalishning eng muhim negizlaridan birini amaliy masalalar yechimi tashkil qiladi. Bunda boshlang'ich ta'lim boshqaruvida yuzaga keladigan muammolarni ko'pi bilan 7 kun ichida yechimini topish va hal etish, boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonidagi kundalik muammolarni bir sutka davomida hal etish, boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonidagi istalmagan hodisa va voqeiliklarning salbiy ta'sir ko'lamini ko'pi bilan uch kun ichida hal qilish kabi masalalar muhim o'rinni tutadi. Shu sababli muammolarning kundalik va haftalik muddatlarda hal etib borilishi boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonining imkoniyatlarini kengaytiradi. Misol uchun, deyarli har kuni muayyan boshlang'ich sinf o'qituvchisi va o'quvchisi o'rtasida qisqa muddatli pedagogik konflikt yuzaga kelishi mumkin. Bu tabiiy jarayondir. Shu sababli o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi anglashmovchiliklar muammoning boshlanishi sifatida qabul qilinadi hamda Murosa tamoyili asosida shu kunnning o'zida hal etiladi. Buning natijasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro tushunuvchanlik tarkib topadi. Shu ma'noda boshlang'ich ta'lim boshqaruvida amaliy muammolarni hal etish yo'nalishi kompromiss, ya'ni tomonlarning o'zaro kelishuvi va murosaga amal qilishi tamoyiliga asoslanadi. Chunki boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonida muammolarning yechimini amaliy hal qilish boshqaruvchining pragmatik kolmpetensiyasi negizini tashkil qiladi.

Boshlang'ich ta'lim boshqaruvida amaliy samara beradigan tadbirlarni amalga oshirish programik yondashuvning asoslaridan biridir. Kuzatishlarimizga ko'ra, o'quvchilar yoki ota-onalar yohud o'qituvchilarining boshlang'ich ta'lim muammosi bo'yicha uzoq vaqtli majlislar o'tkazish kabi tadbir bugungi kunda ma'naviy jihatdan eskirganligini ko'rsatadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim boshqaruvida amaliy tadbirlarning eng muhimlarini yuzaga kelgan muammo bo'yicha qisqa muddatli maslahatlashuv, fikr almashinish, o'zgalarning fikrini bilish, tashabbus vositasida muammoni

individual hal qilishga kirishish kabilar tashkil qiladi va bunda vaqt tejamkorligiga erishiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, masalan, boshqaruv muammosi bo'yicha majlis yoki kengash an'anaviy tadbirdarida ko'p hollarda ularning ishtirokchilari o'rtasida o'zaro ruhiy kelishmoqchilik kelib chiqadi. Buning natijasida muhokama qilinayotgan muammoning ko'lami yanada kengayadi. Shu ma'noda bugungi kunda boshlang'ich ta'lim boshqaruvida asosiy e'tiborni amaliy tadbirdarga qaratish individual yondashuv tarkibiga ham kiradi. Ta'kidlangan amaliy tadbirdarning turlari bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ko'nikmasini tarkib toptirish amaliy ahamiyatga egadir.

Boshlang'ich ta'lim boshqaruvining proqmatik istiqbolli yo'nali shida imkonqadar samarasiz muammolar bilan bog'lanib qolmaslik muhim o'rin tutadi. Bunday muammolarning asosiyalar boshlang'ich ta'lim jarayonini moliyalashtirish bo'yicha bahslashish, boshlang'ich ta'lim jarayonining jihozlanisho'i bo'yicha kamchiliklarni uzoq muddat muhokama qilish, ota-onalarning muammolarni boshlang'ich ta'limning birlamchi muammosi sifatida qabul qilish yoki o'quvchilarining xatti-xarakatlari bo'yicha muayyan vaqtga ega tushunmovchiliklarning keng muhokamasini o'tkazish kabilar tashkil etadi. Bunday muammolarni hal etish uchun hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim menejmenti usullariga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Unga ko'ra, yuzaga kelgan muammoning yechimlarini topish aynan ularga bevosita dahldor bo'lган shaxslarga havola qilinadi. Misol uchun, boshlang'ich ta'lim jarayonini yuksak darajada moliyalashtirish yoki jihozlash muammosini hal qilish bevosita mazkur ta'lim bosqichini moliyalashtiradigan muassasalarga taqdim etiladi. Bundan ma'lum bo'ladi, samarasiz muammolarga aralashmaslik boshlang'ich ta'lim boshqaruvining vakolatlari ko'lамини aniq o'zlashtirishni taqozo etadi. Shu ma'noda bunday ko'nikmalarni egallash bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'lim boshqaruvining proqmatik istiqbolli yo'nali shidi mavjud muammolarni qisqa muddatda hal etish, asosiy e'tiborni amaliy tadbirdarga qaratish va boshqaruvdagi vakolatlar ko'lамини to'g'ri tushunish bilan belgilanadi. Shu sababli proqmatik yondashuv hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim

menejmentining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining rejali istiqbolli yo‘nalishi. Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim jarayonini 2022-2026 yillarda sifatli ko‘rsatkichlar asosida rivojlantirish vazifalari amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining rejali istiqbolli yo‘nalishlari bo‘yicha ham ko‘nikmalarini egallash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday yo‘nalishlarning asosiyлари quyidagilardan iborat:

- a) boshlang‘ich ta’lim jarayonini rejali rivojlantirish;
- b) boshlang‘ich tarbiya jarayonini rejali rivojlantirish;
- v) boshlang‘ich ta’lim va tarbiyaning samaradorligini rejali baholab borish.⁹

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining muhim istiqbolli yo‘nalishlaridan biri boshlang‘ich ta’lim jarayonini rejali rivojlantirishdir. Bugungi kunda mazkur masalaning eng asosiylarini boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlari adabiyotlarining samaradorligini har o‘quv yili davomida baholab borish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’limning keyingi turlariga tayyorlik darajasini monitoring qilish, boshlang‘ich ta’lim muhitining tezkor va zamonaviy yondashuvlarga javob berishini o‘rganish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ish va faoliyat sharoitlarini takomillashtirib borish kabilar tashkil qiladi. E’tibor berilsa, aynan mana shu yo‘nalishlar bo‘yicha rejali rivojlantirish jarayonini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun, bugungi kunda amal qilayotgan yangi o‘quv adabiyotlarining samaradorligini baholashda ularni choraklik va o‘quv yili muddatida o‘rganib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Negaki, gumanitar fanlar tarkibiga kiruvchi yangi o‘quv adabiyotlari hali nazariy jihatdan sinovda ekanligini eslatib o‘tish joiz. Masalan, 4-sinf “Texnologiya” o‘quv fanidan o‘quvchilarga rabotatexnika ishlanmalarini o‘rgatish nazarda tutilgan. Bu nazzariy jihatdan to‘g‘ri, lekin buning uchun mamlakatimizning eng chekka hududlaridagi umumiy o‘rtta ta’lim maktablarining boshlang‘ich ta’lim bosqichlarini rabotatexnika kabi hunarga o‘rgatishga yo‘naltirilgan

⁹ Қаранг: Жабборова О., Умарова З. Бошланғич таълим диагностикаси. – Тошкент, 2023

laboratoriylar bilan taqozo etiladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim jarayonini rejali rivojlantirishda istiqbolli yondashuvlar tajribasidan kelib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.


Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining tarbiya jarayonini rejali rivojlantirish ham muhim istiqbolli yo‘nalishlardan hisoblanadi. Bizning tajribamizga ko‘ra, bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim jarayonida bayramlar, turli viktorinalar yoki o‘quvchilarining tug‘ilgan kunlarini nishonlash kabi tarbiyaviy tadbirlarning ta’sir kuchi susayganligi ma’lum bo‘lmoqda. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida tarbiya jarayonini rejali rivojlantirish uchun tarbiyaviy tadbirlarning miqdoriga emas, sifatiga e’tibor berish dolzarb bo‘lib turibdi. Bu borada boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida rejali tarbiya jarayonini rivojlantirish uchun har bir o‘quvchining muamosini o‘rganib borish, o‘quvchilarining oila muhitini kuzatib borish, o‘quvchilarining o‘zlashtirish jarayonini nazorat qilib borish va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyat samaradorligini tahlil qilib borish kabi tarbiyaviy tadbirlar birlamchi tarzda ko‘zga tashlanmoqda. Umuman boshlang‘ich sinflarda tarbiya jarayonini rejali rivojlantirish uchun “Tarbiya” o‘quv fani mashg‘ulotlaridan tashqari sinfdan va mактабдан tashqari mashg‘ulotlar imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, muzeylar yoki tabiatga sayohat tarbiyaviy tadbirlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ahloqiy rivojlanishida tabiiy mexanizmlar bo‘lib xizmat qiladi. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida tarbiya jarayonini rejali rivojlantirishning bunday muqobil shakllaridan foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini baholab borish boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining muhim rejali istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Buning uchun o‘quvchilarining o‘zlashtirganlik ko‘rsatkichlari mezonlarini belgilash, tarbiyalangan darajasini baholashning mexanizmlarini ishlab chiqish va ularning amaliy faoliyatga tayyorgarlik ko‘lami metodikasini tarkib toptirish dolzarb bo‘lib turibdi. Chunki boshlang‘ich ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini baholash mazkur ta’lim bosqichi boshqaruvining asoslaridan birini tashkil qiladi. Eslatib o‘tish joizki, baholash bu —muammoni o‘rganish, olingan ma’lumoitlarni tahlil qilish va muammoni hal etishning tadbirildarini belgilashdan iborat.

Shu sababli keyingi paytlarda boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi tajribalaridan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi jarayonida foydalanish dolzarb bo‘lib turibdi. Mazkur masalalar bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tegishli ko‘nikmaga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

E’tibor berilsa, byuoshlang‘ich ta’lim boshqaruvingin rejali istiqbolli yo‘nalishlarida ta’lim va tarbiya jarayo nini istiqbolli rivojlantirish hamda ularning samaradorligini baholab borish muhim o‘rin tutadi.

Shunday qilib boshlang‘ich ta’lim boshqaruvingin istiqbolli yo‘nalishlari muhim ahamiyatga egaligi bilan diqqatni tortadi. E’tibor bering:



9-rasm. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvingin istiqbolli yo‘nalishlari mazmuni

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvingin ilmiy istiqbolli yo‘nalishlarini nimalar tashkil etadi?
2. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvingin pragmatik istiqbolli yo‘nalishi asoslari nimalardan iborat?
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvingin rejali istiqbolli yo‘nalishi omillarini nimalar tashkil qiladi?
4. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvingin pragmatik istiqbolli yo‘nalishi asoslarini o‘zlashtiring va haftalik pedagogik amaliyot davrida o‘zlashtirgan pedagogik ko‘nikmalariningizni sinovdan o‘tkazing.

10-MAVZU. BOSHLANG‘ICH TA’LIM BOSHQARUVINING AMALIY AHAMIYATI

Reja:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining sifati
2. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining natijalari
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ta’lim jarayoniga amaliy ta’siri

Tayanch tushunchalar: Boshqaruv, natija, sifat, ta’lim, boshlang‘ich, ta’sir, bilim, ko’nikma, malaka.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining sifati. O‘zbekistonda boshqlang‘ich ta’lim boshqaruvining innovasion yondashuvlar asosida amaliy ahamiyati samaradorligiga erishish jarayoni kechmoqda. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining sifat masalasi bo‘yicha aniq mezonlarni belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu borada boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining sifat ko‘rsatkichi quyidagilar bilan belgilanadi:

- a) boshlang‘ich ta’lim muhitining yuqori ekanligi;
- b) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim va tarbiya jarayoniga faollik bilan intilish ko‘nikmasiga egaligi;
- v) boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z kasbiy faoliyatlaridan qoniqish hissiga egaligi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ustuvor sifati boshlang‘ich ta’lim muhitining barcha talablariga javob berishi bilan belgilanadi. Buning uchun boshlang‘ich ta’lim muhitida ta’lim berishning o‘ziga xos usullari va texnologiyalari, o‘quv adabiyotlari va o‘quv-texnik jihozlari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yuqori kasbiy malakaga egaligi va o‘quv xonalarining barcha talablarga javob berishini tashkil qilish hamda ular bilan ta’minalash muhim hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim muhitining ko‘rsatkichlariga asosan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi sifati baholanadi. Bunday amaliy ahamiyat shu bilan belgilanadiki, boshfaruv asosida ta’kidlangan asoslarga ega boshlang‘ich ta’lim muhiti tarkib toptiriladi. Aynan ko‘pchilik xorijiy va xalqaro baholash dasturlarida ta’lim muhitining ko‘rsatkichlariga asosan boshqaruv sifati baholanib

kelinayotganligini eslatib o‘tish joiz. Misol uchun, TALIS xalqaro ta’lim dasturi ta’lim muhitini baholashda uning sifat ko‘rsatkichiga asoslanadi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi sifatini baholashning mazkur talablari asosida boshlang‘ich ta’lim sifatini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Menejment asoslariga ko‘ra, boshqaruvning birlamchi sifati ta’liim sohasida aynan undagi muhit sifatidir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim va tarbiya bo‘yicha yuksak ko‘nikmaga ega bo‘lishi ham boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining sifat ko‘rsatkichlarini belgilaydi. Chunki boshlang‘ich ta’limda boshqaruvning asosiy vazifasi o‘quvchilarning yuksak darajada bilim olishi va tarbiya ko‘nikmalarini egallashi uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratib berishdan iborat. Misol uchun, sinfxonalarining saniteriya-gigiyena va estetik talabiga javob berishi hamda ularning qulay va shinam muhitga ega bo‘lishi ishlari boshqaruv asosida amalga oshiriladi. E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim menejmentida keyingi paytlarda o‘quvchilarning bilim olish va tarbiya bo‘yicha ko‘nikmalarining tarkib topishi darajasiga asosan mazkur ta’lim bosqichining boshqaruvi sifatini baholash yangi yo‘nalishlardan biri sifatida tarkib topmoqda. Bunday yondashuv avvalo o‘tgan asrning 90-yillarda Rossiya Federasiyasi ta’lim tizimida tajribadan o‘tkazilganligi eslatib o‘tish joiz. Shu sababli mazkur tajriba asosida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi sifatini baholashning mezonlarini ishlab chiqish ham dolzarb bo‘lib turibdi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar faoliyati boshlang‘ich ta’lim boshqaruv sifatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biirini belgilaydi. Unga ko‘ra, boshqaruv asosida ta’lim muhiti va shart-+sharoitlari munosib darajada yaratib berilgach, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar faol faoliyatda bo‘lishlari kerak. Aynan mana shunday faollik ularning o‘z faoliyatini individual tarzda baholab borishiga asos bo‘ladi. Natijada ko‘pgina boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z kasbiy faoliyatidan qoniqlishi yoki qoniqlaslik xolatlari yuzaga keladi. Bunda o‘qituvchilarning o‘z kasbiy faoliyatidan qoni qmaslik hissiga egaligi muhim o‘rin tutadi va bunday faoliyat ularni faollikkka undovchi motivasiya hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi mana shunday motivasion xolatlarni tarkib toptirish vositasida o‘qituvchilarning faolligini yuzaga keltiradi.

Natijada boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘qitish va tarbiyalashning samaradorligi ortib boradi hamda bu jarayonda yangiliklarga intilish malakasi tarkib topadi. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi sifatini amaliy jihatdan baholashda aynan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini faollikka yo‘naltiruvchi motivasion holatlarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining sifati ta’lim muhiti, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim olish va tarbiya ko‘nikmasiga intiluvchanligi hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faollik ko‘rsatkichlariga asosan baholanadi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining natijalari. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining natijalarini baholashda bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim menejmentini yangicha yondashuvlar tarkib topib bormoqda. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining natijalari ahamiyachtini belgilashda quyidagi uch ko‘rsatkichga asoslanish muhim hisoblanadi:

- a) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining innovasion natijasi;
- b) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining samarali natijasi;
- v) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining istiqbolli natijasi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining eng muhim amaliy ahamiyatlaridan biri bu uning innovasion natijaga ega bo‘lishidir. Unga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida tashkiliy ishlarni yo‘lga qo‘yish, muhit va ish faoliyat sharoitlarini yaratishda yangicha yondashuvlarga asoslanish, boshlang‘ich ta’lim va tarbiya jarayonida mo‘ljallangan samaralarga erishish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyat samaradorligini ta’minlash kabi yo‘nalishlar bo‘yicha yangi samaradorlikka erishish natijalariga e’tibor beriladi. Bunda yangi natijalar deganda innovasion talablarga mos bo‘lgan amaliy samaradorlik nazarda tutiladi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim jarayonini tashkil etishda boshlang‘ich ta’lim menejmenti muuntazam ravishda innovasion yondashuvlar va omillarni tadbiq etib borishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Mazkur masalalar bo‘yicha pedagogik ta’lim jarayonida ko‘nikmalarni egallash bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun zaruriyat hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining samaradorlik natijasi belgilangan ish va strategik rejalarning bajarilganligiga ko‘ra

baholanadi. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi butun o‘quv yili davomida ta’lim va tarbiya jarayonini rivojlantirish uchun choraklik ish dasturi hamda o‘quv yiliga mo‘ljallangan strategik ish dasturlariga asoslanadi. Mazkur dasturlarda boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning barcha vositalarini amaliyotga tadbiq etish va mavjud imkoniyatlardan keng foydalanish ko‘rsatkichlari belgilangan bo‘ladi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining o‘quv yili yakunidagi samaradorlik natijalari aynan ana shu ish dasturlarining ijrosiga bog‘liq holda baholanadi. Bu shunday imkoniyatlarni beradiki, yangi o‘quv yilida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining yangilanish tamoyillarini amaliyotga joriy etish, ish va strategik faoliyat dasturlarini aniq belgilash uchun asos bo‘ladi. Natijada boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining samaradorlik natijasi aynan boshlang‘ich ta’lim jarayonini zamonaviy darajada takomillashtirib borishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining natijalaridan biri istiqblolli samaradorlikdir. Unga ko‘ra, bir o‘quv yili davomida erishilgan samarali natijalar asosida kelgusi o‘quv yili uchun amalga oshiriladigan aniq yo‘nalishlarni belgilab olish imkoniyatiga ega bo‘linadi. Chunki yakunlangan o‘quv yilida hal etilmagan muammolar, foydalanilmagan imkoniyatlar va yaratilmagan shart-sharoitlarni yangi o‘quv yilida amalga oshirish uchun boshqaruvinning ish dasturlari shakllantiriladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining istiqbolli natijasi bu – kelgusida boshlang‘ich ta’lim jarayonida butunlay yangi asoslarda rivojlantirish strategiyasini belgilab olish bilan belgilanadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim menejenmenti boshqaruvinning samaradorlik natijasi asosida istiqbolli natijalarga erishish asosiy masalalardan biri hisoblanadi va bu boshqaruvinning kutilgan samarani berishidagi tayanchlaridan biridir.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining natijalari innovasion, samaradorlik va istiqbolli ko‘rsatkichlar bilan baholanadi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining ta’lim jarayoniga amaliy ta’siri. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining amaliy ahamiyatidagi eng muhim masalalardan biri boshqaruvinning ta’lim jarayoniga amaliy ta’siri ko‘rsatkichlaridir. Aslida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi uning rivojlanishi uchun amaliy ta’sir choralarini ko‘rvuchi tizimdir. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining ta’liim jarayoniga

amaliy ta'siri masalasini baholashda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- a) boshlang'ich ta'lim jarayonining texnologik imkoniyatlarga ega bo'lganligi;
- b) boshlang'ich ta'limning turli ko'rsatkichlar bo'yicha yutuqlarga erishganligi;
- v) boshlang'ich ta'lim samaralarining ommaviy tarrzda e'tirof etilganligi.

Boshlang'ich ta'lim boshqaruvining asosiy samaradorliklaridan biri mazkur ta'lim jarayonining texnologik imkoniyatlarini kengaytirgani bilan belgilanadi. Bunda texnologik imkoniyatlar deganda o'quv xonalarining eng zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlanganligi yoki yangilanganligi, ustaxonalar va laboratoriyalarning zaruriy uskunalarga egaligi, zamonaviy o'quv-texnik jihozlarning talab darajasiga javob berishi kabilar asosida boshlang'ich ta'lim boshqaruvining texnologik imkoniyatlar bo'yicha amaliy ahamiyati baholanadi. E'tibor berilsa bunda boshqaruvning asosiy vazifalaridan biri boshlang'ich ta'limning texnologik imkoniyatlarini kengaytirib borishdan iboratdir. Aynan mana shu masalaga xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida asosiy e'tibor qaratishini eslatib o'tish joiz.


Boshlang'ich ta'lim jarayonida bir o'quv yili davomsida turli ko'rsatkichlarga erishish boshlang'ich ta'lim boshqaruvining amaliy choraldar ko'lmini belgilaydi. Unda boshlang'ich ta'lim oluvchilarining turli tanlovlari, olimpiadalar yoki ko'rik – konkurslarda faol ishtirok etib tegishli o'lnarni egallaganligi, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyat bo'yicha ommaviy e'tiroflarga sazovor bo'lganligi va boshlang'ich ta'lim bosqichining hududlar kesimida turli yutuqlarga ega bo'lganligi masalalari asosida boshlang'ich ta'lim boshqaruvining ta'lim jarayoniga amaliy ta'siri natijasi baholanadi. Shu sabaabli o'quv yili davomida boshlang'ich ta'lim boshqaruvi bevosita ta'kidlangan tadbirlar bo'yicha tashkiliy va sharoit yaratib berish ishlarini amalga oshiradi. Diqqat qilinsa, bunda boshlang'ich ta'lim boshqaruvining eng muhim vazifalaridan biri o'z ifodasini topadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim boshqaruvining ta'lim jarayoniga amaliy ta'siri masalasi bo'yicha aniq rejalgara ega bo'lishi taqozo etiladi.

Mamlakatimizda har o'quv yilining oxirida ta'lim muassasalarining, jumladan, boshlang'ich ta'lim bosqichining samaradorlik

natijalari ommavisy baholanadi. Unga ko‘ra, muayyan hududdagi boshlang‘ich ta’lim bosqichining erishgan yutuqlari ommaviy tarzda e’tirof etiladi va ularning samaradorlik natijalari jamoatchilik tomonidan baholanadi. Bunday faoliyatda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining tashkiliy tadbirlar hamda boshlang‘ich ta’limning o‘z vazifalarini kutilgan darajada ijrosini ta’minalashga oid choralarni yo‘lga qo‘yganligi asosiy mezon hisoblanadi. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining bir o‘quv yilda boshlang‘ich ta’lim jarayoniga qulay imkoniyatlar va tadbirlarni yaratib berilganligi uning yakuniy samaradorligini baholashdagi asosiy mezonlardan biri sifatida qabul qilinadi.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ta’lim jarayoniga amaliy ta’siri masalasi aynan uning qanday amalgamoshirilganligi mezonlari bilan baholanadi.

Shunday qilib boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining amaliy ahamiyati uning sifat ko‘rsatkichlari, boshlang‘ich ta’limda erishilgan samaradorlik natijalari va boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ta’lim jarayoniga amaliy ta’siri mezonlari asosida baholanadi. E’tibor bering:



10-rasm. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining amaliy ahamiyati mazmuni

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining sifati deganda nimalarni tushunasiz?
2. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining natijalari qanday baholanadi?

3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ta’lim jarayoniga amaliy ta’siri natijalariga qanday mezonlar asosida yondashiladi?
4. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ta’lim jarayoniga amaliy ta’siri natijalari ko‘rsatkichlarini o‘zlashtiring va konspekt qiling.

2-modul bo‘yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabr-dagi PF-269-son “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. // www. ziyonet.uz
2. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi. – Toshkent, 2023
3. Rahimova D. Strategik menejment. – Toshkent, 2018

3-MODUL. BOSHLANG‘ICH TA’LIM BOSHQARUVI SAMARADORLIGI

11-mavzu. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini aniqlash indikatorlari

Reja:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samardorligini o‘rganish indikatori
2. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligi tahlil indikatori
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligining natija indikatori

Tayanch tushunchalar: *Ta’lim, boshlang‘ich, indikator, boshqaruv, natija, aniqlash, tushuncha, bilim, ko’nikma, malaka.*

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samardorligini o‘rganish indikatori. Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida rivojlantirib borish ishlari amalga oshirilmoqda. Bunda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini o‘rgaib borish ham muhim o‘rin tutadi. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini o‘rganishning indikatorlarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi.

“Indikator” tushunchasi lotincha bo‘lib, mezon, ko‘rsatkich, yondashuv va munosabatning majmuini ifodalaydi.¹⁰ Shu ma’noda bu o‘rinda indikator ilmiy atamasi mezon tushunchasida qo‘llaniladi. Biz tomonimizda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini o‘rganishning quyidagi indikatorlari shakllantirildi:

- a) boshlang‘ich ta’lim muhitining rivojlanganligi indikatori;
- b) boshlang‘ich ta’lim jarayonida tajribali o‘qituvchilarning faoliyat ko‘rsatganligi indikatori;
- v) boshlang‘ich ta’limda erishilgan yutuqlarning talabga javob berishi indikatori;
- g) boshlang‘ich ta’limning o‘z ta’lim bosqichlari va turlari bilan

¹⁰ Ҳасанбоев Ж. ва бошқ. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Тошкент, 2009. 171-бет.

qiyoziy rivojlanganligi indikatori.

Boshlang‘ich ta’lim va tarbiya jarayoni har bir o‘quv yili yakunida hamda boshlang‘ich ta’limning umumiy yakunida (4-sinf yakunida) samaradorlik darajasi baholab boriladi. Bunda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining yaratigan ta’lim muhitini natijasida yutuqlarga erishiladi. Shu sababli har bir o‘quv yili yakunida boshlang‘ich ta’lim muhitining asoslari, imkoniyatlari, vositalari va manbalari o‘rganiladi. Bunday o‘rganish natijasida boshlang‘ich ta’lim muhitining rivojlanganligi yoki rivojlanmaganligi aniqlanadi. Mazkur ishlarning barchasi boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining ta’lim muhitini tarkib toptirish bo‘yicha faoliyatini bag‘olash indikatori hisoblanadi. Ta’lim muhitini tabiiy jarayon bo‘lib, u muntazam rvishda rivojlantirib borilishi kerak. Buning uchun ta’lim va tarbiya jarayonining har bir mashg‘uloti qiziqarli bo‘lishi, yangiliklarga boyligi hamda o‘quvchilarni motivsiya qilish xususiyatlariga ega bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli o‘ziga xos rivojlanish xususiyatiga ega ta’lim muhitini yaratish boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini o‘rganishning asosiy indikatori sifatida belgilanadi. Ko‘philik xorijiy mamlakatlarda ta’lim muhitini indikatori keng miqyosda qo‘llaniladi. Bu o‘rinda aynan ta’limning rivojlanganlik yoki rivojlanmaganlik ko‘rsatkichi boshlang‘ich ta’lim boshqaruvinining samaradorlik indikatori sifatida qabul qilinadi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonining eng muhim asoslardan biri tajribali o‘qituvchilarning faoliyat ko‘rsatishidir. Yosh o‘qituvchilarning tajriba orttirib borishi va tajribla o‘qituvchilarning faoliyat ko‘ralm hamda mahorati kengayib borishi imkoniyatlarini aynan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi tarkib toptiradi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim jarayonida tajribali o‘qituvchilarning faoliyat ko‘rsatganligi mazkur ta’lim bosqichi boshqaruvi samaradorligini o‘rganishning eng muhim indikatorlaridan biridir. Chunki boshlang‘ich ta’lim boshqaruvchisi asosiy e’tiborni aynan u mansub bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim jarayoniga tajribali o‘qituvchilarning faoliyat ko‘rsatishi choralarini amalga oshirishga qaratilishi kerak. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sind o‘qituvchilarining faoliyat indikatori boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini aniqlashning eng muhim mezonlaridan biridir. Mazkur masalaga

o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab Yevropa mamlakatlari ta’lim tizimida xalqaro dasturlar asosida yondashila boshlandi. Unga ko‘ra, o‘qituvchilar faoliyatining samaradorligi ta’lim tizimi boshqaruvining natijalari bilan bog‘liq holda baholanadi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida o‘qituvchilar faoliyati uchun yaratilgan sharoitlardan kelib chiqgan holda bu jarayonni baholash muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini o‘rganishning yana bir muhim indikatorlaridan biri boshlang‘ich ta’lim jarayonida erishilgan yutuqlarning talablarga javob berishidir. Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirganlik darajasi hududlar va mint aqaviy kesimda yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi, ularning amaliy ko‘nikma va faoliyat malakalarini egallaganligi, boshlang‘ich ta’lim va tarbiya jarayonining yutuqlari ommaviy e’tirof etilganligi masalalari birlamchi o‘rin tutadi. Aynan mana shu masalalar bo‘yicha erishilgan yutuqlarga boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi sabab bo‘ladi. Shu sababli xorijiy mamlakatlarda, misol uchun AQSHda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi, umuman ta’lim tizimi boshqaruvi samaradorligini baholashda ta’limming yutuqlari indikatoriga asosiy e’tibor qaratiladi. Chunki ta’lim jarayoni qanchalik keng ko‘lamli yutuqlarga erishmasin, bu yutuqlar eng avvalo uning zamonaviy rivojlanish jarayoniga xizmat qilishi kerak. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim va tarbiya jarayonining bir o‘quv yili davomida erishgan yutuqlarining amaliy ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqib, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholashga erishish metodik jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini o‘rganishning ta’lim muhiti indikatori, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyati indikatori va boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘zlashtirganlik darajasi bo‘yicha erishilgan yutuqlarning amaliyoti indikatori mazkur ta’lim boshqaruvini baholashda asosiy mezonlar hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligi tahlil indikatori. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligi tahlili har bir o‘quv yilining oxirida amalga oshiriladi. Bu masalada xorijiy mamlakatlar boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida muayyan tajribalar tarkib topgan bo‘lsa-da, biroq mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi

samaradorligi tahlili indikatorlari ishlab chiqilgan emas. Shu jihatdan bizning yondashuvimizga ko‘ra, mazkur masalada quyidagi indikatorlar asosida yondashish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- a) tashkiliy indikator;
- b) moliyaviy indikator;
- v) ilmiy indikator.

Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini tahlil qilishda tashkiliy indikatorga asoslanish muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi bir o‘quv yili davomida boshlang‘ich ta’lim va tarbiya jarayonini qanday omillar, vositalar, metodlar va texnologiyalarga asosan tashkil etganligi, boshlang‘ich ta’lim jarayoniga o‘qitishning qanday texnologiyalari joriy etilganligi va ularning samaradorlik darajasi kabi masalalarga asosiy e’tibor qaratiladi. Shu jihatdan agar boshlang‘ich ta’lim jarayonida to‘g‘ri tashkiliy tadbirlar amalga oshirilgan bo‘lsa, ular boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligining tahliliga asos bo‘ladi. Bunday tahlil natijasida boshlang‘ich ta’lim jarayonida hal etilgan muammolar majmui, bartaraf etilgan murakkabliklar xususiyatilari va hal etish imkonni bo‘lmagan masalalarning mavjudligiga e’tibor qaratilib, ularga tayangan holda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining tashkiliy faoliyati tahlil qilinadi. Bunday tahlil natijasida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining tashkiliy samaradorligi baholanadi.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim samaradorligini tahlil qilishning muhim indikatorlaridan biri moliyaviy indikatordir. Unga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim jarayonining moliyalash manbalari va ulardan to‘g‘ri foydalanish omillari, qo‘srimcha moliyaviy ta’minotlarning to‘g‘ri jalb etilganligi hamda ulardan oqilona foydalanganligi masalalariga asosiy e’tibor qaratiladi. Aynan mana shu omillarga tayangan holda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining moliyaviy faoliyati baholanadi. Buning natijasida moliyaviy indikator boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining samaradorlik darajasini tahlil qilishda asosiy manba vazifasini bajaradi. Chunki eslatib o‘tish joizki, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining uchta eng muhim faoliyat asoslari – tashkiliy, moliyaviy va samarali ko‘rsatkichlarga erishish omillari mavjud. Shu jihatdan moliyaviy indikator boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini tahlil qilishdagi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Eslatib o‘tish joizki, mazkur masalada bugungi kunda

boshlang‘ich ta’lim jarayoniga homiylik mablag‘lari, grantlar kabi qo‘srimcha moliyalashtirish vositalarining qo’llanishiga qarab boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining samaradorligini moliyaviy jihatdan tahlil qilishga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Bu masalalarni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tomonidan o‘zlashtirilishi dolzarb turibdi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini tahlil qilishning navbatdagi indikatori bu – ilmiy indikatordir. Unga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining tashkiliy, moliyaviy va amaliy faoliyati asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilib ko‘riladi. Bunda ayniqsa, boshqaruv uslublarining zamonaviyligi, qulayligi va natijadorligiga asosiy e’tibor qaratiladi. Chunki jamiyatimizning innovasion va demokratik rivojlanishi sharoitida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida o‘ziga xos boshqaruvi asoslariga tayanish taqozo etilmoqda. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining tashkiliy, moliyaviy va amaliy faoliyat samaradorligi boshqaruv jarayonida qo’llanilgan vositalarga tayangan holda tahlil qilinadi. Buning natijasida boshlang‘ich ta’lim samaradorligining bir o‘quv yildagi ko‘rsatkichlari bo‘yicha asoslangan ma’lumotlarga ega bo‘linadi. Shu jihatdan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligi tahlili bo‘yicha ilmiylik indikatorini o‘zlashtirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining samaradorligi tahlili indikatorlari tashkiliy indikator, moliyaviy indikator va ilmiy indikatordan iborat. Bu indikatorlар asosida erishgan yutuqlar o‘rganilib, baholanadi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligining natija indikatori. Boshlang‘ich ta’lim jarayonining bir o‘quv yili yoki to‘rt yildagi erishgan yutuqlari bo‘yicha samaradorligini baholash uchun mazkur ta’lim bosqichi boshqaruvi natijalarini baholash amalga oshiriladi. Buning uchun quyidagi indikatorlarga asoslaniladi:

- a) bir o‘quv yili natijalari indikatori;
- b) to‘rt o‘quv yili natijalari indikatori;
- v) muddatli o‘quv yili natijalari indikatori.

Bir o‘quv yili indikatori har bir o‘quv yilining yakunida amalga oshiriladi va uning natijalari asosida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi erishgan yutuqlar baholanadi. Bunda asosiy e’tibor boshlang‘ich

ta’lim va tarbiya jarayonining oqilona tashkil etilganligi, yetarli darajada moliyaviy ta’minlanganligi va munosib ta’lim muhitiga yaratilganligi masalalarini o’rganishga qaratiladi. Buning natijasida boshlang‘ich ta’limning bir o‘quv yilida erishgan natijalari asosida ushbu ta’lim bosqichining faoliyat samaradorligi tahlil qilinib, ularga baho beriladi. Eslatib o‘tish joizkii, bu indikator vositasida 1-4-sinflar o‘quv yillari yakunlari asosida boshlang‘ich ta’lim samaradorligi natijalari baholanadi.


Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligining natijalarini baholashda boshlang‘ich ta’lim yakuni, ya’ni, 4-sinfning tuguallanishidagi amalga oshiriladigan tahlillar asosiy o‘rin tutadi. Bunda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining to‘rt yil davomida amalga oshirilgan faoliyati o‘rganilib baholanadi. Aynan mana shunday indikator asosida to‘rt yil davomida boshlang‘ich ta’li mjarayonining qanday tashkil etilganligi va rivojlanganligi, uning ko‘rsatkichlari va yutuqlari sinflar (1-4-sinflar) kesimida o‘rganilib baholanadi. Buning natijasida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining to‘rt yillik faoliyat samaradorligi tahlil qilinib, uning strategik boshqaruv usullariga baho beriladi. Agar to‘rt yil davomida boshqaruv jarayoni kutilgan samaralarni bergen bo‘lsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvchilarini faoliyatda davom etadi. Aks holda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvchilarini tarkibi yetmish foizgacha o‘zgartiladi yoki boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining strategik asoslari butunlay yangilanadi. Chunki bu hol boshlang‘ich ta’limning muayyan bir bosqichidagi yakunlari hosilasidir. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi natijalarining to‘rt yillik indikator tahlili mazkur masalalarda muhim o‘rin tutadi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligi natijalarini o‘rganishning navbatdagi indikatori muddatli indikatordir. Unga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligi natijalari 1-2-sinflar va 3-4-sinflar kesimida o‘rganilib, tashkiliy, moliyaviy va ilmiy indikatorlar asosida baholanadi. Chunki boshlang‘ich ta’limning mazkur ikki bosqichi o‘ziga xos yakunlovchi xususiyatga ega bo‘lib, ularning erishgan natijalari bo‘yicha boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini samaradorligi baholanadi. Misol uchun, 1-2-sinflarda boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quv va tarbiya asosiy o‘rin tutgan bo‘lsa, 3-4-sinflarda esa o‘zlashtirish va faoliyatga tayyorlash

vazifalari ustuvor hisoblanadi. Mazkur masalalarni to‘g‘ri tashkil etish va yo‘naltirish ishlari aynan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli bu muddatli indikatorning ta’mir omillarini to‘g‘ri baholash taqozo etiladi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’limi boshqaruvining samaradorligi natijalari bir o‘quv yili yakuni, to‘rt yil o‘quv yili yakuni va muddatli o‘quv yili yakuni indikatorldari asosida tahlil qilinib, erishilgan yutuqlarning samaradorligi baholanadi.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini aniqlashda ana shu o‘rganilish, tahlil va natija indikatorlariga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. E’tibor bering:



11-rasm. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini aniqlash indikatorlari mazmuni

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini o‘rganish indikatorlari nimalardan iborat?
2. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligi tahlil indikator asoslarini nimalar tashkil etadi?
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligining natija indikatorlarini qanday yondashuvlar asosida o‘rganiladi?
4. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini aniqlash indikatorlarini o‘zlashtiring va konspekt qiling.

12-MAVZU. BOSHLANG‘ICH TA’LIM BOSHQARUVI MONITORINGI

Reja:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ichki monitoringi
2. Boshlang‘ich ta’lim monitoringining tashqi monitoringi
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ilmiy-amaliy monitoringi

Tayanch tushunchalar: *Monitoripng, boshlang‘ich, ta’lim, boshqaruv, o’rganish, baholash, bilim, ko’nikma, malaka.*

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ichki monitoringi. Mamalkaktimiz boshlang‘ich ta’lim jarayonini rivojlantirishda mazkur ta’lim bosqichining boshqaruvi omillaridan oqilona foydalinish muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki to‘g‘ri va oqilona tashkil etilgan boshqaruva jarayoni boshlang‘ich ta’limni rivojlantiruvchi ustuvor tanyalardan hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining monitoringi masalasi bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ko’nikmaga ega bo‘lishi taqozo etiladi.

“Monitoring” so‘zi inglizcha bo‘lib, muayyan bir sohani tekshirib turish va nazorat etish ma’nolarini anglatadi; atama sifatida birpo jarayonni kuzatish, baholash va bashoratlash ma’nolarini bildiradi.¹¹ Shu jihatdan monitoring boshlang‘ich ta’lim jarayoni va uning boshqaruvi jarayonini kuchli yoki zaif tomonlarini yaqqol ko‘rsatuvchi parametrlar majmuidir. Bu o‘rinda ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining monitoringi bo‘yicha maxsus metodik yondashuvlar mamlakatimizda hozircha ishlab chiqilgan emas. Shunday bo‘lsa-da boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi bo‘yicha milliy tajribamiz an’analari va xorijiy pedagogik tajriblari texnologiyalarining xususiyatlaridan kelib chiqib, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining monitoringi metodikasini ishlab chiqish mumkin. Shu jihatdan bizniningcha, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ichki monitoringini amalga oshirishda quyidagi metodikaga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

¹¹ Қаранг: Ҳасанбоев Ж. ва бошк. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Тошкент, 2009. 335-бет.

- a) muayyan umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi monitoringini amalga oshirish;
- b) mazkur monitoringni amalga oshirishda maxsus guruh faoliyatiga tayanish;
- v) bu monitoringning natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining har to‘rt yillik faoliyatiga baho berib borish.

Ushbu metodikaga asosan boshlang‘ich ta’lim jarayoni boshqaruvini ichki monitoringini kutilgan darajada amalga oshirish mumkin. Bunda eng avvalo maktab Pedagogik kengashi tomonidan boshlang‘ich sinflar rahbarlari, boshlang‘ich sind o‘qituvchilari va mazkur umumiy o‘rta ta’lim maktabi biriktirilgan oliy pedagogik ta’lim muassasasi vakilidan iborat monitoring Guruhi tuziladi. Bunday guruhni tuzishda ularning toq sonli miqdorda bo‘lishiga e’tibor beriladi, chunki monitoring natijalari Guruh a’zolari tomonidan ovoz berish yo‘li bilan tasdiqlanadi. Ovozlar teng bo‘lib qolgan holatda Guruh rahbari hal qiluvchi ovoz berish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Maxsus guruh tomonidan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ichki monitoringini amalga oshirishda quyidagilarga e’tibor berilib, maxsus ma’lumotnomalar to‘plab boriladi:

- a) sinflar kesimida boshlang‘ich ta’lim va tarbiya jarayonining tashkil etilishi hamda uning samaradorlik ko‘rsatkichlari;
- b) sinflar kesimida boshlang‘ich sind o‘qituvchilarining faoliyat samaradorligiga erishib borish ko‘rsatkichlari;
- v) sinflar kesimida boshlang‘ich ta’limning erishayotgan yutuqlari ko‘rsatkichlari.

Mazkur ko‘rsatkichlar asosida boshlang‘ich ta’lim jarayoni to‘rt yil davomida o‘rganib boriladi va tegishli ma’lumotlar kompyuter dasturida qayid etiladi. Buning natijasida to‘rt yillik o‘quv yili yakunida muayyan umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligi tahlil qilinib, uning monitoring bahosi beriladi. Chunki monitoring qilishda yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, boshldang‘ich ta’lim boshqaruvining kuchli yoki zaif tomonlari chqqol namoyon bo‘ladi.

Mamlakatimiz tajribali boshlang‘ich sind o‘qituvchilarining o‘z mahorat darslari hamda o‘zgalarning mahorat darslari hamda ochiq mashg‘ulotlari natijalarini tahlil qilib borish an’anasi mavjud. Aynan

mana shu tajribaga asosan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ichki monitoringini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki ichki monitoring asosida muayyan umumiyl o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf bosqichida erishilgan yutuqlar o‘zga maktablardagi yutuqlar bilan qiyoslash imkoniyatlarini beradi. Shu sababli xorijiy mamlakatlarda, jumladan, germaniya Federativ Respublikasi ta’lim tizimida ichki monitoring imkoniyatlaridan oqilona foydalaniladi. Negaki, ichki monitoring salbiy ko‘rsatkichlarni bersa, uni bartaraf etish imkoniyatlariga ega bo‘linadi. Shu jihatdan bizning yondashuvimizga ko‘ra ham boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ichki monitoringini yo‘lga qo‘yish va u bo‘yicha amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ko‘nikmalarini rivojlantirib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim monitoringining tashqi monitoringi. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida tashqi monitoring ham muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining barcha faoliyati bo‘yicha o‘rganishlar olib borish maxsus taklif etilgan tashkilotlar vakili yoki mutaxassis tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli tashqi monitoringning ahamiyati shundaki, u boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining faoliyatini xolis baholash imkonini beradi. Bunda tashqi monitoringni amalga oshiruvchi quyidagilarga amal qiladi:

- a) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining konseptual asoslarga amal qilishini baholash;
- b) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining samaradorlik asoslari va sabablarini aniqlash;
- v) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini rivojlantirishning muqobil yo‘nalishlarini ishlab chiqish.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining tashqi monitoringini amal oshiruvchi eng avvalo mazkur boshqaruvning konseptual asoslarga qanday amal qilganligini o‘rganadi va baholaydi. Shu jihatdan konseptual asoslар таркибини boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining huquqiy asoslari, pedagogik-menejment manbalari, ta’lim boshqaruvi bo‘yicha qabul qilingan konsepsiyalari, dasturlar, talablar, standartlar hamda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini amalga oshiruvchi shaxsning boshqaruv kompetensiyasi tashkil qiladi. Mazkur masalalarning barchasiga amal qilish natijasida boshlang‘ich

ta’lim boshqaruvi o‘zining samaradorligiga erishadi. Shu sababli tashqi monitoringni olib borayotgan shaxs muntazam ravishda, ya’ni, o‘quv yili davomida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining monitoringini ta’kidlangan asoslarga ko‘ra amalga oshirib boradi. Bu o‘ziga xos tizimli kuzatish jarayoni bo‘lib, u4 boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining konseptual asoslarga qat’iy amal qilinishida motivasiya vazifasini bajaradi. Shu sababli tashqi monitoring ishini Boshlang‘ich ta’lim metodik kengashi tomoindan amalga oshirib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining tashqi monitoringida uning samaradorlik asoslari va sabablari ham kuzatib boriladi. Chunki boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini amalga oshiruvchi professional shaxs o‘zining ish uslublari, faoliyat mo‘ljallari va jamoatchilikning tashabbuslari asosidagi vositalarni amalda qanday qo‘llayotganligi boshqaruv jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega. Mazkur masalalar tashqi monitoring vositasida kuzatib borilsa, boshqaruvni amalga oshiruvchi shaxsnинг faoliyat imkoniyatlari kengayib boradi. Chunki u o‘zinig faoliyati monotoring jarayonida ekanligini his qilib iturishi natijasida imkonqadar boshqaruv jarayoniga samarali vositalarni qo‘llaydi. Shu ma’noda tashqi monitoringchi boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida qo‘llanilgan vositalarning ijobiy yoki salbiy natija berayotiganligini kuzatib boradi. Buning natijasida boshlang‘ich ta’limda o‘ziga xos boshqaruv qonuniyatlari va madaniyatiga asoslangan boshqaruv jarayoni tarkib topadi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining tashqi monitoringchisi ana shunday o‘rganishldar natijasida mazkur ta’lim bosqichining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan muqobil yo‘nalishlarni ishlab chiqadi. Bunday muqobil yo‘nalishlar har bir o‘quv yilining oxirida yoki boshlang‘ich ta’limning 4-sinfi yakunida boshqaruvchiga taqdim etib boriladi. Buning natijasida boshlang‘ich ta’limda boshqaruvni amalga oshirishning muhim imstiqlabli yo‘nalishlariga ega bo‘linadi. Shu sababli strategik menejment bo‘yicha mutaxassislar boshqaruv jarayonida muayyan sohaning rivojlantirishda muqobil yo‘nalishlarga ega bo‘lish amaliy jihatdan samarali ekanligini alohg‘ida ta’kidlashadi. Mazkur tajribadan kelib chiqgan holda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida tashqi monitoringchi taqdim etgan rivojlantirishning muqobil yo‘nalishlari asosida

faoliyat olib borish o‘ziga xos jarayonni tarkib toptiradi. Chunki muqobil yo‘nalishlar muayyan muammoar bo‘yicha, jumladan, boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga byurokratik to‘siqlarni hal etish yoki unga duch kelmaslik holatlarda muhim o‘rin tutadi. Bularning barchasi oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan nazariy va metodik jihatdan o‘zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ilmiy-amaliy monitoringi.

Mamalakatimizda ta’lim tizimining barcha yo‘nalishlari va sohalarida ilmiy-amaliy asoslarga tayanish birlamchi vazifalar sifatida belgilangan. Chunki ilmiy-amaliy asoslar har qanday faoliyatni pedagogik talablarga mos bo‘lishi uchun omil bo‘ladi. Shu jihatdan eslatib o‘tish joizki, aslida boshqaruvning asoslaridan biri – bu majburlashdir, mazkur negizning yumshatish uchun boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida pedagogik qonuniyatlarga asosdangan ilmiy-amaliy vositalarga tayanish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ilmiy-amaliy monitoringi quyidagi tartibda olib borilishini eslatib o‘tish joiz:

- a) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida qo‘llanilayotgan tamoyilarning asosligi;
- b) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida ishtirok etuvchilarning faoliyati asosligi;
- v) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining oshkora amalga oshirilayotganligi.

Ilmiy-amaliy monitoringning asosiy vazifalaridan biri xolislik tamoyili asosida muayyan jarayonni qoidalar yoki talablarga mos ekanligini kuzatib, tahlil qilib borishdir. Shu jihatdan tashqi monitoringchi tomonidan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida qo‘llanilayotgan tamoyillarning asoslarini o‘rganib borish suhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunda tashqi monitoringni amalga oshiruvchi boshqaruvning demokratik, i nsonparvarlik yoki majburlovchi tamoyillari takribining qaysi birlaridan ustuvor qo‘llaniyotganligini bir o‘quv yili davomida o‘rganib boradi. Buning natijasida o‘quv yili yakunida muayyan boshlang‘ich ta’lim bosqichining boshqaruvida qo‘llanilgan tamoyillar ko‘lami namoyon bo‘ladi. Chunki boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida qanday tamoyillar tarkibi qo‘llanilsa, uning samaradorligi ham shunga binoan ijobjiy


yoki salbiy xarakterda bo‘ladi. Shu sababli xorijiy mamlakatlarda, jumladan, Rossiya Federasiyasi ta’lim tizimida umuman ta’lim muassasalari boshqaruvini tashqi monitoring asosida kuzatib borish tajribasiga ustuvor darajada amal qilinadi. Buning natijasida ta’lim boshqaruvida noqonuniylik yoki byurokratik tamoyillarni qo‘llash jarayoni susayadi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida ishtirok etayotganlarning faoliyat asoslariga egaligi masalasi ham tashqi monitoringchi tomonidan kuzatib boriladi. Misol uchun, bunda tota-onalarning boshqaruvdagi vakolatlari, boshlang‘ich ta’lim metodik kengashining boshqaruvdagi vazifalari yoki mакtab Pedagogik kengashining boshlang‘ich ta’lim boshqaruvdagi ishtiroki asoslari kabi masalalar o‘ргanilib, baholab boriladi. Buning natijasida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida ishtirokchilarning qanday darajada faoliyat yuritayotganligi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘linadi. Shuni eslatib o‘tish joizki, har qanday boshqaruv jarayonida ishtirokchilarning mavjud bo‘lishi qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniy asosga ega bo‘lishida ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli tashqi monitoringni amalga oshiruvchi boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida ishtirok etayotganlarning faoliyat asoslar qanday belgilanganligi va ulardan qanday foydalaniyatganligi masalalari bo‘yicha o‘quv yili davomida qat’iy monitoringi amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida tashqi monitoringschinineg asosiy vazifalaridan biri mazkur boshqaruv jarayonining oshkora amalga oshiralayotganligini kuzatib borishdir. Unga ko‘ra, boshqaruvchining qabul qilayotgan har bir hujjatlari, ko‘rsatmalari va buyruqlari oshkora tarzda amalga oshirilishi kerak. Ayniqsa, boshqaruvchining boshlang‘ich ta’lim va tarbiya muammolari bo‘yicha qabul qilayotgan qarorlari jamioatchilikka ma’lum qilingan holda amalga kiritilishi masalasini tashqi monitoringchi qat’iy o‘rganadi. Buning natijasida o‘quv yili yakunida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining demokratik yoki byurokratik xususiyatlarga egaligi to‘g‘risida aniq ma’lumotlarga ega bo‘linadi. Shu sababli tajribali menejmentlar tashqi monitoringchining ta’siri boshqaruv jarayonida demokratik xususiyatlarning kuchayishida namoyon bo‘lishini alohida ta’kidlashadi. Haqiqatan ham boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida oshkorlik qadriyatiga amal qilish tajribasiga ega

bo‘lish uchun tashqi monitoringchining motivasiyasiga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shunday qilib boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi monitoringi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u mazkur jarayonning samaradorligi to‘g‘risida aniq ma’lumotlarni berishi bilan ahamiyatlidir. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi monitoringida ichki monitoring, tashqi monitoring va ilmiy-amaliy monitoringlardan foydalangan holda uning jarayoni baholab boriladi. E’tibor bering:



12-rasm. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi monitoringi omillari

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ichki monitoringi asoslari nimalardan iborat?
2. Boshlang‘ich ta’lim monitoringining tashqi monitoringi omillarini nimalar tashkil etadi?
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ilmiy-amaliy monitoringi xususiyatlari qanday tizimga tayanadi?
4. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ichki va tashqi monitoringi asoslarini o‘zlashtiring hamda konspekt qiling.

13-MAVZU. BOSHLANG‘ICH TA’LIM BOSHQARUVI TADQIQOTCHILIGI

Reja:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi muammolarini ilmiy o‘rganish
2. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi muammolarining fundamental tadqiqotchiligi
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining integrasision tadqiqotchiligi

Tayanch tushunchalar: *Ta’lim, boshqaruv, boshlang‘ich, integrasiya, tadqiqot, muammo, bilim, ko’nikma, malaka, yechim, malaka.*

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi muammolarini ilmiy o‘rganish. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi jarayonining eng asosiy samaradorlik asoslardan biri bu tadqiqotchilikdir. Chunki boshqaruv tadqiqotchiligi mazkur jarayonning asoslari legimentligi (qonuniyligi), texnologiyalari, samarali istiqbolli yo‘nalishlari va uni amalga oshirish vositalari bo‘yicha eng muhim nazariy, metodik hamda amaliy hulosalarни beradi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim boshqaruvchisi boshqaruv tadqiqotlarining hulosalariga e’tibor berishi bilan o‘z faoliyatida samaradorlik omillariga ega bo‘ladi. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi muammolarini ilmiy o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim muammolarini tadqiq etishda eng avvalo quyidagilarga asosiy e’tibor qaratiladi:

- a) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini boshqarish muammolari;
- b) boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyat asoslarini ilmiy belgilash muammolari;
- c) v) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining milliy va xorijiy tajribalari muammolari.

Boshlang‘ich ta’limi boshqaruvi tadqiqotchiligidagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini boshqarish muammolarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Bunday tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining huquqi va manfaatlari ustuvorligini ta’minlash, ota-onalarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini boshqarishdagi huquqlari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar bilan munosabatlari asoslari va maktab jamoasining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilan

hamkorligi kabi muammolarning tadqiq etilishi, ular bo‘yicha nazariy va metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi ustuvor ahamiyat kasb etadi. E’tibor berilsa, bu toifadagi tadqiqotchilikda asosiy e’tibor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining huquq va manfaatlarini boshqaruv vositasida ta’minalashga qaratiladi. Chunki aynan o‘quvchilarning huquq va manfaatlarini ta’minalash bo‘yicha metodik tavsiyalar, texnologik yondashuvlar va kompetension vositalar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular aynan tadqiqotchilik jarayonida ishlab chiqiladi. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi muammolari bo‘yicha o‘ziga xos tadqiqotlar majmuasi xorijlik pedagog olimlardan Rossiya Federasiyasida nisbatan ko‘proq amalga oshirilganligini eslatib o‘tish joiz. Buning natijasida ushbu mamlakatda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining erkinlik tamoyiliga asosan munosabtda bo‘lish qardriyatlari tarkib topgan. Ana shunday tajribalarga tayangan holda mamlakatimizda ham boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi muammolari bo‘yicha tadqiqotlar ko‘lamini amalga oshirish dolzarb bo‘lib turibdi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi muammolari bo‘yicha amalga oshiriladigan tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining faoliyat asoslarini ilmiy belgilab berishdir. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining vakolatlari, huquqlari va majburiyatlari ko‘لامи ilmiy jihatdan asoslab berilishi, ularning boshlang‘ich ta’lim boshqaruvidagi ishtiroki, o‘quvchilar va ota-onalar bilan munosabatlaridagi vakolatlari kabi masalalar bo‘yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar amalga oshiriladi. Buning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining faoliyat asoslarini ilmiy tayanchlarga ega bo‘ladi, aynan ilmiylik ularning faoliyat samaradorligi uchun poydevor vazifasini o‘taydi. Buning natijasida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga nisbatan munosabatlarning asosiyligi tarkib topadi. Masalan, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvchisi o‘zi qabul qilgan qarorning ko‘pchilik qismi ijrosini boshlang‘ich sinf o‘quvchilari zimmasiga yuklaydi. Aynan mana shu masalaning qanchalik qonuniylikka egaligi tadqiqotchilik asosida baholab beriladi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi muammolari bo‘yicha amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biri boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faoliyatining ilmiy asoslarini yaratish bilan belgilanadi. Mazkur masala bo‘yicha mamlakatimizda

keng qo‘llanilib tadqiqotchilikni yo‘lga qo‘yish zaruriyat bo‘lib turibdi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi muammolari bo‘yicha amalga oshiriladigan tadqiqotlarning navbatdagi muhim yo‘nalishlaridan biri milliy va xorijiy tajribalar muammolarini tadqiq etishdir. Unga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid milliy tajribadagi yutuq va kamchiliklar ilmiys baholanadi, bu masala bo‘yicha xorijiy tajribyualardan foydalanishning ilmiy asoslari ishlab chiqiladi. Chunki boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi bo‘yicha milliy va xorijiy tajribalarda shunday muammolar uchraydiki, ularning ilmiy yechimini tezkor topish zaruriyat hisoblanadi. Misol uchun, mamlakatimiz boshlang‘ich ta’limi boshqaruvi tajribasida nisbatan hujjat shakllarining ko‘payib ketganlik muammosi mavjud. Ana shu me’yoriy hujjatlarning eng zaruriyatlarini belgilash va ularning amal qilishini maqbullashtirish bo‘yicha nazariy va metodik tavsiyalar aynan ilmiy tadqiqotlar asosida ishlab chiqiladi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining milliy va xorijiy tajribalaridagi muammolar bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlarni amalga oshirish, ularning yo‘nalishlarini belgilab olish bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim menejmentining eng asosiy vazifalaridan birini tashkil etadi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi muammolarining fundamental tadqiqotchiligi. Boshlang‘ich ta’lim boshqaurvining asosiy tayanchlaridan biri bu fundamental tadqiqotchilikdir. Unga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining strategik muammolari va masalalar bo‘yicha fundamental, ya’ni keng ko‘lamli hamda kamida uch yilga mo‘ljallangan tadqiqotlar amalga oshiriladi. Shu jihatdan bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining quyidagi muammolari bo‘yicha fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb bo‘lib turibdi:

- a) boshlang‘ich ta’lim menejerligi asoslari;
- b) boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlash muammolari;
- v) boshlang‘ich ta’limni menejerlik shaklda boshqarish omillari.

Boshlang‘ich ta’lim menejerligi asoslari bo‘yicha fundamental tadqiqotlar olib borish boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining muhim amaliy asoslaridan birini tashkil etadi. Bunda menejerlik nazariyasi, didaktikasi va metodikasi bo‘yicha mavzular kesimida tadqiqotlar amalga oshiriladi. Misol uchun, menejerlik asoslari

didaktikasida amalga oshiriladigan tadqiqot ishlarida boshqaruv madaniyati, boshlang‘ich ta’limdagi boshqaruv xususiyatlari va muammolari, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ta’lim jarayoni va uning nazariyasi, boshlang‘ich ta’lim boshqaruviga oid didaktik yondashuvlar kabi masalalar bo‘yicha tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda mazkur masalalar bo‘yicha tadqiqot ishlari endi amalga oshirila boshlanayotganligini eslatib o‘tish joiz. Shu sababli oliv pedagogik ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan “Talabalar akademiyasi” tuzilmasi vositasida boshlang‘ich ta’lim mpenejerligi asoslari bo‘yicha ilmiy tadqiqotchilikni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining tadqiqotchilikda boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlash muammolari bo‘yicha ham ilmiy ishlarni amalga oshirish dolzarb hisoblanadi. Bunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf menejerlarining kasbiy kompetensiyalari, ularning faoliyati asoslari va menejerlik asoslarining menejment nazariyasida tutgan o‘rni kabi yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlashning tashkiliy, moliyaviy va metodik asoslari ishab chiqilib, ularga tayangan holda boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha boshqaruv hodimlarini tayyorlash masalalariga doir amaliy tavsiyalar taqdim etiladi. Boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlash muammolari bo‘yicha mamlakatimizda maxsus tadqiqot e’lon qilinmaganligini eslatib o‘tish joiz. Shu ma’noda oldiy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mazkur tadqiqot ishlariga jalg etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim jarayoni umumiy o‘rtta ta’lim maktablari rahbariyati, Pedagogik kengashi va boshlang‘ich ta’lim metodik kengashi tomonidan boshqarilib kelinmoqda. Bugungi kunda mazkur ta’lim bosqichini menejerlik shakli asosida boshqarishga o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim jarayonini menejerlik shaklida boshqarishning asoslari, metodlari va texnologiyalari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish dolzarb bo‘lib turibdi. Bu borada ayniqsa, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining menejerlik shaklidagi boshqaruv bo‘yicha ilmiy ishlanmalar va jihozlar yaratishga jalg etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Aynan ilmiy ishlanmalar

tadqiqotlarning g‘oyadan amaliy amaliyotga o‘tish shaklidir. Shu ma’noda bu borada zamonaviy texnologik vositalarga asoslangan ilmiy tadqiqotchilikni yo‘lga qo‘yish maqsadga muovfiq bo‘ladi.

Diqqat qilinsa boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi muammolarining fundamental tadqiqotchiligi mazkur jarayonni barcha muammolarini qamrab olishga mo‘ljallangan tadqiqot hisoblanadi. Shu sababli bu tadqiqotchilikka bu talabalarni jalb etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining integrasiyon tadqiqotchiligi. Mamlakkatimizda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi muammolari bo‘yicha integrasiyon tadqiqotchilikni yo‘lga qo‘yish ham dolzarb bo‘lib turibdi. Bunda ayniqsa quyidagilarga e’tibor berish kutilgan samarani beradi:

a) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining boshqar ta’lim bosqichlari boshqaruvi bilan munosabatlari muammosi;

b) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining individual xususiyatlari muammosi;


v) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining zamonaviy muammolari.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining boshqa ta’lim bosqichlari boshqaruvi bilan munosabatlari muammosi bo‘yicha integrasiyon ilmiy tadqiqot ishldarini yo‘lga qo‘yish muhimdir. Bunda integrasiyon yondashuv boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining ta’limning boshqa turlari va bosqichlari boshqaruvi bilan aloqadaorligini, o‘zaro munosabatdaligini va umumiy xususiyatlarga egaligi masalalari tadqiq etiladi. Buning natijasida boshlang‘ich ta’limning umumiy ta’lim tizimi boshqaruvidanagi o‘rni, mazmuni va o‘ziga xos jihatlari belgilanadi. Buning natijasida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining o‘zaro bog‘liqlikdagagi jihatlari bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu borada bugungi kunda butunlay yangi shakldagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb bo‘lib turibdi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi boshqa ta’lim bosqichlariga nimsbatan individual xususiyatlarga ega. Shu sababli bu borada amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqot ishlarida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining individual xususiyat lari assoslari, uning metodlari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va o‘qituvchilarini boshqarishdagi spesifikasi, individual xususiyatga ega boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining integrasiyasi kabi muammolar tadqiq etiladi. Bu muammolarni tadqiq etish va boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining

integrasiyon xususiyatlarini belgilash va unda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining individual omillarini saqlab qolish kabi masalalar ilmiy tadqiqotchilikning negizlarini tashkil etadi. Shu sababli bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarida integrasiyonlik va individuallik uyg‘unligiga tayaniladi.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining zamonaviy muammolari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunda integrasiyon yonda-shuvlarga asoslanish kutilgan samarani beradi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining eng zamonaviy muammolari sifatida bugungi kunda quyidagilar idrok etiladi: boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi manbalarini tadqiq etish, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining raqamli texnologiyalarini tadqiq etish, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining masofaviy texnologiyasini tadqiq etish, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining innovasion texnologiyalarini tadqiq etish, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining xorijiy tajribalarini tadqiq etish, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining samaradorlik indikatorlari muammolarini tadqiq etish va h.k. Bunday yondashuv boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining zmonaviy muammolarini majmui tarzda qamrab olish imkonini beradi. Shu sababli iqtidorli talabalarni mazkur tadqiqotchilik jarayoniga jalb etish dolzarb bo‘lib turibdi.



13-rasm. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi tadqiqotchiligi shakllari

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining integrasion tadqiqotchiligi zamonaviyligi aniq muammolarini hal etishga yo‘naltirilganligi bilan amaliy ahamiyatga egadir.

Shunday qilib boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi tadqiqotchiligi mazkur ta’lim bosqichi boshqaruvining amaliyotida muhim o‘rin tutadi. Mazkur masalalar bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ko‘nikmaga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. E’tibor bering:

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi muammolarini ilmiy o‘rganish deganda nimalarni tushunasiz?
2. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi muammolarining fundamental tadqiqotlari asoslarini nimalar tashkil etadi?
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining integrasion tadqiqotchiligi nirmalarga tayanadi?
4. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi muammolarini fundamental tadqiq etish asoslarini o‘zlashtiring va konspekt qiling.

14-MAVZU. BOSHLANG‘ICH TA’LIM BOSHQARUVI STRATEGIYASI

Reja:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining o‘rta muddatli strategiyasi
2. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining uzoq muddatli strategiyasi
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining istiqbolli strategiyasi

Tayanch tushunchalar: *Boshqaruv, strategiya, boshlang‘ich, ta’lim, muddat, bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba.*

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining o‘rta muddatli strategiyasi.

Strategiya- bu eng asosiy maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan xarakatlarning muddatlarga ega dasturidir.¹² Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining o‘rta muddatli strategiyasi bir chorakka mo‘ljallangan boshqaruv asoslari dasturini qamrab oladi. Bunda quyidagilar belgilab olinishini eslatib o‘tish joiz:

- a) boshlang‘ich ta’limni boshqarish strategiyasi;
- b) boshlang‘ich tarbiya jarayonini boshqarish strategiyasi;
- v) boshlang‘ich ta’lim samaradorligini boshqarish strategiyasi.

Mazkur strategiyalar asosida boshlang‘ich ta’lim, tarbiya va ularning samaradorligi maxsus dastur asosida boshqariladi. Bu boshqaruv bir choraklik muddatda amalga oshiriladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida asosiy e’tibor uni strategik, ya’ni istiqbolli rivojlantirish asoslarini izlab togpishga qaratiladi. Bunda strategiyani amalga oshiruvchi boshqaruvchi ta’limning mazkur bosqichi istiqbollarini aniq belgilay olishi, unda erishiladigan ko‘rsatkichlarni mo‘ljallashi va strategik dasturni amalga oshirish metodlarini ishlab chiqishi muhim hisoblanadi. Shu sababli xorijiy mamlakatlarda boshlang‘ich ta’lim jarayonini strategik boshqarishda tashqi menejerlardan oqilona foydalaniladi. Mazkur tajribadan kelib chiqgan holda mamlakatimizda ham boshlang‘ich ta’lim jarayonini strategik boshqarishda tajribali boshqaruv xodimlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

¹² Қаранг. Ҳасанбоев Ж. ва бошк. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Тошкент, 2009, 438-бет.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarni strategik boshqarish butunlay boshqa bir yondashuvlarga asoslaniladi. Unga ko‘ra, boshlang‘ich ta’limda amalga oshirilayotgan tarbiya jarayoni tashkil etiladi va yo‘naltirib boriladi, aksincha, tarbiya jearayoni turli ko‘rsatmalar yoki atklar vositasida bevosita boshqarilmaydi. Chunki tarbiya jarayoni boshqarilsa, unda majburlash va ko‘niktirish kabi tamoyillar ustuvor bo‘lib qoladi. Aynan boshlang‘ich ta’lim jarayonida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda tashkil etish va yo‘naltirish bilan cheklaniladi. Bunday yondashuv strategik boshqaruv shakllaridan birini tashkil qiladi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim jarayonida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar demokratik xarakterda boshqarilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining rivojlanish jarayonida ekanligini unutib bo‘lmaydi.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim jarayoni samaradorligini strategik boshqarish uning boshlang‘ich ta’lim jarayonini rivojlan Tirishdagi asoslariga tayanadi. Shu jihatdan strategik boshqarishni boshlang‘ich ta’limning tadrijiy rivojlanish jarayoni, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari holati va boshlang‘ich ta’lim muhiti masalalari bo‘yicha maxsus yondashuvlar asosida boshqaruv strategiyasi amalga oshiriladi. Bunday boshqaruv ham bir chorak muddatda amalga oshiriladi va keyingi choraklarda mavjud muammolarning odini olishga qaratilgan tadbirlarni belgilashga xarakat qilinadi. Shu saababli tajribali boshqaruv xodimlari boshlang‘ich ta’lim samaradorligini strategik boshqarishda bugungi holat va ertangi kun vaziyatini hisobga olgan holda yondashadi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining o‘rta muddatli strategiyasi boshlang‘ich ta’lim jarayonini rivojlantirishga yo‘naltirilganlik xususiyatiga egadir.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining uzoq muddatli strategiyasi. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining uzoq muddatli strategiyasi besh yil muddatga asoslanadi. Shu sababli bu strategiyada quyidagilarga asosiy e’tibor qaratiladi:

a) bolalarni boshlang‘ich ta’lim jarayoni bilan qamrab olish a ularning sinflar kesimi bo‘yicha joylashuvini takomillashtirish;

b) mamlakat boshlang‘ich ta’lim bosqichini oliv ma’lumotli boshlang‘ich sinf o‘qituvchi lari bilan ta’minlash;

v) tajribali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini muntazam rag‘-batlantirib borish.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining uzoq muddatli strategiyasida bolalarni boshlang‘ich ta’lim bilan qamrab olish va ularni sinflar kesimida to‘g‘ri joylashuvini tashkil etish besh yil muddat davomida muntazam amalga oshirib boriladi. Chunki bugungi kunda aholining tabiiy rivojlanishi sharoitida mamlakatning ayrim hududlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kam sonligi va muayyan hududlarida esa (ayniqsما، shahar joylarda) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘p miqdorda ekanligi yuzaga keldi. Shu sababli strategik boshqarishda mazkur muammoning besh yil davomida yechimini topish assosiy masala hisoblanadi. Buning uchun kam sonli o‘quvchilarga ega hududlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sinflardagi minimal miqdorini belgilash va ko‘p sonli o‘quvchilar mavjud hududlarda sinflardagi o‘quvchilarning maksimal miqdorini belgilab qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun boshlang‘ich ta’limning uzoq muddatli strategiyasi shakllantirilishi taqozo etiladi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining uzoq muddatli strategiya-sida mamlakat boshlang‘ich ta’lim bosqichini oliv ma’lumotli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilan qamrab olishni amalga oshirish muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim bosqichi 61,4 foiz darajada oliv ma’lumotli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilan qamrab olingan. Bu borada shu sababli oliv pedagogik ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’limning kunduzgi, kechki, sirtqi va ikkinchi mutaxassislik shakllarida oliv ta’limni amalga ogshirish tashkil etilgan. Aynan mana shu imkoniyat yaqin kelajakda mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayonini oliv ma’lumotli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilan qamrab olish imkonini beradi. Shu sababli bu strategik boshqaruv “2022-2026 yillarda yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”ni amalga oshirishning “sifatlari ta’limga erishish vazifasi” doirasida amalga oshirilmoxda. Kelgusida boshlang‘ich ta’limni uzoq muddatli strategik boshqaruvchi menejerlarni tayyorlash taqozo etiladi.

Boshlang‘ich ta’limni uzoq musddatli strategiya asosida boshqarishda tajribali o‘qituvchilarni muntazam ravishda rag‘batlantirib borish ham muhim yo‘nalish hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimizda

xealq o‘qituvchisi, yoshlar murabbiylari, xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi kabi unvonlarga ega boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini hamda orden va medallar bilan muokfotlangan tajribali murabbiylar faoliyat ko‘rsatmoqda. Bunda asosiy e’tibor tajribali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini “Mustaqillik kuni” hamda “O‘qituvchilar va murabbiylar kuni” bayramlari munosabati bilan davlat tomonidan muntazam rag‘batlantirib borish amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, iqtidorli yosh boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining Zulfiya nomidagi davlat mukofoti kabi tanlovlari va “Mard o‘g‘lon” ko‘krak nishoni bilan rag‘batlantirishdarda munosib ishtirok etayotganligini eslatib o‘tish joiz. Shu jihatdan mamlakatimizda tajribali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini rag‘batlantirib borish strategiyasini belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki o‘quvchilarining boshlang‘ich ta’limdan keyingi ta’lim turlarida bilim olish va faoliyat ko‘rsatishi masalasi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mehnati hosi lasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining uzoq muddatli strategiyasi kamida besh yil davomida boshlang‘ich ta’limni strategik rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshirishi bilan ahamiyatga egadir.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining istiqbolli strategiyasi. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvida istiqbolli strategiya ham muhim o‘rin tutadi. Bunday strategiya 10-15 yil muddatga mo‘ljallanib tuziladi. Mazkur strategiyani ishlab chiqishda boshqaruvinning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilanadi:

- a) boshlang‘ich ta’lim berishning texnologiyalarini yangilab borish;
- b) boshlang‘ich ta’lim jarayonini zamonaviy jihozlanishini amalga oshirish;
- v) boshlang‘ich ta’limning mamlakatda ta’limning boshqa turlarida tutgan o‘rnini mustahkamlab borish.

Boshlang‘ich ta’limning istiqbolli strategiyasini belgilashda mazkur ta’lim bosqichining texnologiyalarini yangilab borishga asosiy e’tibor qaratiladi. Buning uchun strategik boshqaruvgaga asos langan holda mamlakatimiz va xorijiy mamlakatlarda kashf etilayotgan yangi o‘qitish texnologiyalarini boshlang‘ich ta’limda joriy etish amalga oshiriladi. Misol uchun, bugungi kunda mamlakatimizda

barcha sohalarni raqamlashtirish jarayoni kechmoqda. Shu jihatdan mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim bosqichini yagonalashtirilgan tartibda boshvqarishning raqamli texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Bunday texnologiya asoslari bilan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ko‘nikmalarini tarkib toptirish ham muhim ahamiyatga egadir. Bunda “Boshlang‘ich ta’lim menejmenti” o‘quv fanining imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.


Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining istiqbolli strategiyasini mazkur ta’lim bosqichining har bir o‘quv yilida talab va ehtiyojlardan kelib chiqib zamonaviy jihozlanishini amalga oshirish muhim hisoblanadi. Bunda boshlang‘ich ta’lim laboratoriyalari, ustaxonalarini tashkil etish va ularning jihozlarini zamonaviylashtirib borish, boshlang‘ich sinfxonalarining imkoniyatilari va shart-sharoitlarini kengaytirish, o‘quvchilarining bilim olishi hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun eng qulay shavroitlarni yaratish ishlari amalga oshiriladi. Bunday strategik boshqarishda eng kamida o‘n yil muddatga mo‘ljallangan dasturga asoslaniladi. Shu sababli “Boshlang‘ich ta’lim menejmenti” o‘quv fani vositasida boshlang‘ich ta’lim jarayonini uzoq muddatli jihozlash strategiyasini belgilab olish muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limdjan keyingi bir qator ta’lim turlari faoliyat yuritayotganligini eslatib o‘tish joiz. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, Prezident va ijod maktablari hamda ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari ana shunday ta’lim turlarining asosiyalarini tashkil etadi. Bu ta’lim trurlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim jarayonini davom ettiradi. Bundan tashqari, mamlakatimizda muktabgacha ta’lim bosqichi ham dastlabki ta’lim vazifasini bajarmoqda. Bularning barchasi boshlang‘ich ta’lim bosqichini ta’lim bosqichlari va turlari o‘rtasida mavqeini mustahkamlab borish va bu masalada uzoq muddatli strategiyaga asoslanishga taqozo etadi. Chunki o‘n yildan kesyin boshlang‘ich ta’lim bosqichi qanday holatda bo‘ladi, degan muammoga uzoq muddatli boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi strategiyasi javob berishi kerak. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining uzoq muddatli boshlang‘ich ta’lim strategiyasi ko‘nikmasi bilan

qurollantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda “Boshlang‘ich ta’lim menejmenti” o‘quv fanining imkoniyatlari va asoslaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining istiqbolli strategiyasi 10-15 yilga mo‘ljallangan dasturlardan iborat bo‘lib, ularda boshlang‘ich ta’lim jarayonini zamonaviy talablarga moslashtirib borish ishlari amalga oshirish nazarda tutiladi.

Shunday qilib boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi strategiyasi mazkur ta’lim bosqichi amaliyotida muhim ahamiyatga egadir. Ta’kidlangan strategiyalarni oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘zlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. E’tibor bering:



14-rasm. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi strategiyasi asoslari

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining o‘rta muddatli strategiyasi deganda nimalarni tushunasiz?
2. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining uzoq muddatli strategiyasi asoslarini nimalar tashkil etadi?
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining istiqbolli strategiyasi mexanizmlari nimalardan biorat?
4. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining uzoq muddatli strategiyasi asoslarini o‘zlashtiring va konspekt qiling.

15-MAVZU. BOSHLANG‘ICH TA’LIM BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMI

Reja:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruv samaradorligini baholash an’analari
2. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholashning reyting tizimi
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholashning integrasision tizimi

Tayanch tushunchalar: Samara, boshqaruv, an’ana, baho, ta’lim, boshlang‘ich, tizim, reyting, bilim, ko’nikma, malaka.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruv samaradorligini baholash an’analari. Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholash nisbatan yangi yo’nalish hisoblanadi. Bugungi kunga qadar tekshirish va hisobot topshirish shakllarida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligi baholab kelingan. Bundan keyin boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholashda yangicha yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyatga egadir. Ana shunday yondashuvlardan biri baholash an’analari hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholashning an’analardan milliy yondashuv ustuvor bo’ladi. Shu jihatdan bu masalada quyidagilarga amal qilish muhim ahamiyatga ega:

- a) hududiy shaklda baholash;
- b) markazlashgan shaklda baholash;
- v) xalqaro dastur asosida baholash.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini hududiy shaklda baholash eng chekka hududlardagi umumiy o’rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf bosqichlarini ham rivojlantirish imkonini beradi. Bunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hududlari kesimida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholash o’ziga xos ijobiylarini ta’sis etadi. Chunki qaysi hududda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi talab darajasida amalgalashirilgan bo’lsa, shu hududda boshlang‘ich ta’lim jarayoni

rivojlangan hisoblanadi. Shu jihatdan hududiy baholash shaklida boshlang‘ich ta’lim jarayonini rivojlantirish bo‘yicha raqobat, tajriba almashish va o‘zaro bir-biridan o‘rganish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun har bir o‘quv yilida hududiy baholash shakliga amal qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholashning markazlashgan shaklini ta’lim tizimi davlat boshqaruvi organlari, ilmiy markazlar va ta’limga oid ilmiy institutlar amalga oshiradi. Bunda maxsus xujjatlar vositasida boshlang‘ich ta’lim jarayonining rivojlanish darajasi o‘rganiladi va olingan ma’lumotlar asosida belgilangan guruh tomonidan marzkur ta’lim bosqichining boshqaruvi samaradorligi baholanadi. Buning natijasida mamlakat miqyosida boshlang‘ich ta’limning rivojlanish holati, uning ko‘rsatkichlari, yutuqlari va kamchiliklari aniqlanib, chora-tadbirlar majmui belgilanadi. Bunda asosiy e’tibor boshqaruvinositasida boshlang‘ich ta’lim jarayonini yanada rivojlantirishga qaratiladi.

2018 yildan boshlab mamlakatimiz xalqaro ta’lim dasturlarini milliy ta’lim tizimiga joriy eta boshladi. Shu jihatdan xalqaro dastur asosida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholash muhim ahamiyatga ega. Bunda misol uchun, TALIS xalqaro dasturi asosida baholash muhim ahamiyatga egadir. Chunki bu dastur boshlang‘ich ta’lim uchun yaratilgan shart-sharoit, ta’lim muhiti, o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasi va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyat sam aradorligini o‘rganadi. Mazkur dastur asosida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi ana shu ko‘rsatkichlarga binoan baholanishi muhim ahamiyatga egadir. Bu bilan boshlang‘ich ta’lim jarayonining xalqaro dasturlar talablariga mos darajada amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘linadi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholashning o‘ziga xos an’analari mavjuddir. Bu an’analardan foydalangan holda har o‘quv yilida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholab borish maquschadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholashning reyting tizimi. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholashning reyting tizimi ham muhim ahamiyatga ega. Bunday reyting boshlang‘ich ta’lim jarayoni va uning rivojlanish tamoyillariga asosan amalga oshiriladi. Shu jihatdan bu borada qukyidagilarga

amal qilinadi:

- a) sifat reytingi;
- b) yutuq reytingi;
- v) istiqbol reytingi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholashning sifat reytingi asosan boshlang‘ich ta’lim muhitini o‘rganish natijasida amalga oshiriladi. Bunda boshlang‘ich ta’lim uchun yaratilgan sharoitlar, jihozlar va uskunalar o‘rganilib, ularning boshlang‘ich ta’lim jarayoniga ijobjiy ta’sir ko‘lami baholanadi. Chunki boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining asosiy vazifalaridan biri zamonaviy ta’lim muhitini yaratishdir. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining samaradorlik sifati aynan boshlang‘ich ta’limda amal qilayotgan o‘quv-biluv va texnologik muhitning darajasiga arab amalga oshiriladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim muhiti barcha milliy va xalqaro talablarga javob beradi. Shu jihatdan bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim bosqichi boshqaruvini amalga oshirayotgan Boshlang‘ich ta’lim metodik kengashining faoliyati qoniqarli ekanligini ta’kidlab o‘tish joiz. Bu kengashda tajribali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini faoliyat yuritmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholashning yutuqlar reytingi ham muhim ahamiyatga ega. Bu reyting ko‘p hollarda Vazirlik darajasidagi ta’lim davlat boshqaruvi organi tomonidan yuritiladi. Unga ko‘ra, boshlang‘ich ta’limning sharoiti, uning jihozlanishi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ma’lumotlik darajasi va ta’lim muhitiga munosabat masmalalariga e’tibor qaratiladi. Aynan mana shu masalalarni o‘rganish bilan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining iyutuqlari baholanadi. Buning natijasida talab darjasida ko‘rsatkichlarga ega boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi yutuqlari o‘zga boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi uchun namuna sifatida taqdim etiladi. Natijada mamlakat miqyosida boshlang‘ich ta’lim bosqichini tipiklashgan tarzda rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘linadi. Shu sababli mazkur yutuqlar reytingini har bir o‘quv yilida amalga oshirib borish muhim ahamiyatga egadir.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholashning i stiqbol reytinggi ham mavjud. Unga ko‘ra, har to‘rt yilda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligi hududlar kesimida baholanadi.

Chunki 4-sinf yakunida boshlang‘ich ta’limning muayyan muddati tuguallanadi. Shu sababli istiqbol reytingida boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning asoslari, uning kelgusidagi yo‘nalishlari va boshlang‘ich ta’limning oliy ma’lumotli o‘qituvchilar bilan qamrab olinishi masallari o‘rganilib, ularning natijasi asosida boshqaruv samaradorligi baholanadi. Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim bosqichini oliy ma’lumotli o‘qituvchilar bilan ta’xminlash masalasiga ham alohida e’tibor berish lozim. Buning uchun yangicha yondashuvlarga asoslanish va oliy pedagogik ta’lim muassasalarining imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu bilan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining samaradorligi ortadi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholashning reyting tizimi asosiy e’tiborni mazkur ta’lim bosqichini istiqbolli rivojlantirishga qaratadi. Shu sababli mazkur masalalar bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ko‘nikmaga ega bo‘lishi taqozo etiladi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholashning integrasision tizimi. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholab borish muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan bunday baholash jarayoni boshlang‘ich ta’limsni boshqaruv asosida yangicha rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo‘linadi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholashning integrasision tizimi quyidigilarga asoslanadi:

- a) hamkorlikda baholash;
- b) tajriba almashish shaklida baholash;
- v) individual tarzda baholash.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini hamkorlikda baholash tizimi bir necha tashkilotlar, institutlar va markazlar tomonidan amalga oshiriladi. Bugungi kunda bu borada oliy pedagogik ta’lim muassasalari keng imkoniyatga ega ekanligini ta’kidlab o‘tish joiz. Chunki bu muassasalarga umumiy o‘rtta ta’lim muktablari biriktirilgan. Shu jihatdan oliy pedagogik ta’lim muassasalari turli vazirlilik, agentlik va inspeksiyalar bilan hamkorlikda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholash imkoniyatlariga ega. Bu borada ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi huzuridagi Ta’limi sifatini

baholash inspeksiyasi imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bu inspeksiya baholash bo‘yicha milliy va xorijiy tajribalarni o‘zlashtirgan tuzilmalardan biridir.


Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligni baholashning tajriba almashish shakli ham integrasion tizimning muhim tarkiblaridan biridir. Unga ko‘ra, tuman, shahar va mamlakat miqyosida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi bo‘yicha muvaffaqiyatga erishgan maktablarning tajribasi namuna sifatida taqdim etiladi. Bunda asosiy e’tibor boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining tajribalari umumiy o‘rtta ta’lim maktablari hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan o‘zlashtirishga qaratiladi. Ta’lim muhitida tajriba almashish tizimi muayyan ta’lim tizimining teng va uyg‘un rivojlanishi uchun muhim asoslarni beradi. Shu sababli o‘qituvchilar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslari vositasida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligi bo‘yicha tajriba almashish jarayonini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning natijasida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari yangi ma’lumotlar va yondashuvlar bilan tanishish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining samaradorligini baholashda individual tizim ham muhim ahamiyatga ega. Bunda muayyan umumiy o‘rtta ta’lim maktabi Pedagogik kengashining qarori bilan har to‘rt yilda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi individual tarzda baholab boriladi va natijada boshlang‘ich ta’lim bosqichining hududlar miqyosida rivojlaneish to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘linadi. Shu ma’noda individual baholash tizimi boshlang‘ich ta’lim jarayonidagi yutuqlarni targ‘ibot qilish va kamchiliklarni bartaraf etish masalalariga assosiy e’tiiborni qaratadi. Bunday faoliyat natijasida boshlang‘ich ta’limni rivojlanirishning yangi imkoniyatlarini kashf etish mumkin bo‘ladi. Chunki bunday baholash tshaklida asosan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tajribaviy yondashuvlariga tayaniladi.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholashning integrasion tizimi qulayligi va boshlang‘ich ta’lim jarayoni to‘g‘risida aniq ma’lumotlarni berishi bilan muhim ahamiyatga egadir. Mazkur tizim ham bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan o‘zlashtirilishi muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini

baholash tizimi baholash an’analari, reyting va integrasjion tizimlarga asoslanadi. E’tibor bering:



15-rasm. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholash omillari

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholash an’analari deganda nimani tushunasiz?
2. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholashning reyting tizimi asoslari nimalardan iborat?
3. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholashning integrasjion tizimi nimalarga tayanadi?
4. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi samaradorligini baholashning reyting tizimi asoslarini o‘zlashtiring va konspekt qiling.

Uchinchi modul bo‘yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Axliddinov R. Maktabni boshqarish san’ati. – Toshkent, 2006
2. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi. – Toshkent, 2023
3. Po‘latov Sh. Ta’lim menejmenti. – Toshkent, 2019

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabrdagi PF-269-son “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. // www.ziyonet.uz
O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. // www.ziyonet.uz
2. Axliddinov R. Maktabni boshqarish san’ati. – Toshkent, 2006
3. Adizova T.M. Boshqaruv muloqoti. –TDPU, 2000
4. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi. – Toshkent, 2023
5. Jabborova O. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlash metodikasi. – Chirchiq, 2023
6. Jo‘rayev R.X. Ta’lim menejmenti. – Toshkent, 2006
7. Jo‘rayev R.X. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. – Toshkent, 2006
8. Karimjonov A., Jabborova O., Mamadaliyev K., Eshmanova N. Pedagogik tizimno boshqarishning me’yoriy asoslari. – Toshkent, 2021
9. Ochilov M. Muallim qalb me’mori. – Toshkent, 2001
10. Po‘latov Sh. Ta’lim menejmenti. – Toshkent, 2019
11. Rahimova D. Strategik menejment. – Toshkent, 2018
12. Valijonov R., Qobilov O. Menejment asoslari. –Toshkent, 2006
13. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Ta’lim menejmenti. – Toshkent, 2006
14. Yo‘ldoshev N.K. Menejment asoslari va biznes reja. – Toshkent, 2017
15. Yo‘ldoshev N.K., Zaxidov G.E. Menejment. –Toshkent, 2017
16. Yo‘ldoshev J. G. O‘qituvchilarma’naviyatini shakllantirish. –Toshkent, 2000

Onaxon Jabborova, Qumriniso Usmanova

BOSHLANG‘ICH TA’LIM MENEJMENTI

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliqo‘ziyeva

Musaxhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Muxammadiyev

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 19.06.2024 y.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi.

“Times New Roman” garniturasi.

Xisob-nashr tabogi. 8,5.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 2265223.

«Sarbon LLS» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Nashriyot tel. raqami +998 (94) 673-66-56

QAYDLAR UCHUN